

**KONSTITUTSIYA – INSON QADRI,
ERKINLIK, TENGLIK VA ADOLAT GAROVI!**



Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!



Postda Ha nocty

O'zbekiston
Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi
nashri

2025-yil 4-dekabr
payshanba

№ 49 (4743)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqib boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

FAROVON KELAJAK POYDEVORI



– Men, Yangiyo'l tumani IIB ta'minlash bo'linmalari haydovchisi, safdor Akrom Begmatov 18 yildan buyon ichki ishlar organlarida xizmat qilib kelmoqdaman. Ishonch bilan ayta olamanki, mamlakatimiz Konstitutsiyasida xalqimizning ko'p asrlik tajriba va ma'naviy qadriyatlarini, boy tarixiy-huquqiy merosi aks ettirilgan. Shu bilan birga, Bosh qomusimiz ko'plab demokratik davlatlarda

konstitutsiyaviy qurilish sohasidagi ilg'or tajribaning eng yaxshi jihatlarini, xalqaro hujjatlarga asoslangan inson huquq va manfaatlarini, erkinligini ta'minlash va himoya qilish mexanizmini o'zida mujassam etgan. Asosiy qonunimizning mavjudligi nafaqat ichki ishlar organlari xodimlarining, balki barcha vatandoshlarimizning taqdirida beqiyos o'rin tutadi.

KO'ZIMGA YOSH QALQDI, – deydi Komiljon ota

2025-yil podpolkovnik Muhammadjon Mirzajonov uchun unutilmas yil bo'ldi. Yurt tinchligi va osoyishtaligi hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'lidagi 30 yillik fidokorona xizmatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga ko'ra, «Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan taqdirlandi.



Shu kuni uning telefoni tinmadi. Hamkasblar, do'stlar, shogirdlar birin-ketin tabriklar yo'llashdi. Ammo eng ta'sirli lahzalar ota-onasi va oila a'zolari bilan kechdi.

– Farzandimning bunday yuksak mukofot bilan taqdirlangani haqidagi xabarni eshitgan on qalbidan allanechuk tuyg'ular mavjlandi, ko'zimga yosh qalqdi, – deydi Muhammadjonning otasi Komiljon ota. – Bu nafaqat o'g'lim uchun, balki butun oilamiz uchun beqiyos sharaf, iftixor. Bunday e'tirof uchun Prezidentimizga oilamiz nomidan minnatdorlik bildiram.

Lavhamiz qahramoni ichki ishlar organlarida xizmat faoliyatini boshlaganiga 30 yildan oshdi. 2001-yildan profilaktika inspektori sifatida xizmat qilib kelmoqda. Shundan 10 yili Chilonzor tumanidagi «Zarqo'rg'on» mahallasida o'tdi. Shu bois unga bu hudud juda qadrli. Bugungi kunda «Xayrobod» mahallasida xizmat qilayapti.

Xizmat faoliyati davomida yuzlab murojaatlarni ko'rib

chiqib, qonuniy hal etgan, bir qator firibgarlik holatlari hamda boshqa jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv olib borib, qonun ustuvorligini ta'minlagan.

M. Mirzajonov o'z tajribalarini shogirdlariga o'rgatishdan erinmaydi. Xususan, bugun «Zarqo'rg'on» mahallasida faoliyat yuritayotgan profilaktika katta inspektori, mayor Dilmurod Shermatov, kapitan Abdurashid Mirzalimov hamda «Xayrobod» mahallasi profilaktika inspektori, leytenant Aliahmad Hamroqulov uni o'zlariga ustoz deb bilishadi. Ular ustozlaridan o'rgangan bilim va ko'nikmalarni xizmatda qo'llab kam bo'lishmayapti.

– Mening yoshlarga aytar gapim qaysi sohada bo'lishingizdan qat'i nazar, Vatanga halol va sidqidildan xizmat qilsangiz, mehnatingiz albatta e'tirof etiladi, – deydi podpolkovnik Muhammadjon Mirzajonov. – Sizga yuklatilgan vazifani vijdonan bajaring, natijalar o'z-o'zidan kelaveradi.

Insonning barcha yutuqlari va faoliyatidagi samaradorlik ortida oilasi turadi. Mirzajonovlar xonadoni ham ana shunday muhabbat, hamjihatlik va barqarorlik qo'rg'oni. Turmush o'rtog'i Dilafruz bilan to'rt nafar – ikki o'g'il va ikki qizni tarbiyalab voyaga yetkazishdi. Katta o'g'li Muhiddinjon ota izidan borib, Uchtepa tumani IIOFMBda patrul-post xizmati inspektori sifatida faoliyat yuritmoqda. Hozirda u yuksak marralarni ko'zlab, oliy ta'limda sirtidan ta'lim olmoqda. Darvoqe, bu baxtli juftlikning shirindan-shakar yetti nafar nabirasi ham bor.

Podpolkovnik Muhammadjon Mirzajonovning bosisib o'tilgan yo'li – yurtga sadoqat va matonat talab etiladigan hayot maktabi. Uning o'z vazifasini sidqidildan ado etgani yoshlar uchun ibrat, mehnatsevarlik, intizom va matonat timsoli bo'la oladi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

SOHAVIY XIZMATLARDA

HUQUQIY STATISTIKA FIDOYILARI

IIV Raqamli texnologiyalar va huquqiy statistika departamentining Huquqiy statistika bosh markazi xodimlari ichki ishlar organlarida tezkor ma'lumotlar hisobini yuritish, so'rovnoma yuborish, tekshirish va ma'lumotlardan foydalanish tartibi bo'yicha xizmat olib boradi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarini raqamli texnologiyalar yordamida huquqiy statistika qiladi.

Maxsus hisob ma'lumotlarni jamlash, saqlash va yuritish, integrallashgan ma'lumotlar banki faoliyatini ta'minlash, arxiv hujjatlarining markazlashgan hisobini olib borish ham bosh markazning asosiy vazifasiga kiradi. Hozir bu yerda asosan o'z



sohasining ustalari bo'lgan xodimlar faoliyat ko'rsatmoqda.

– Qidiruv ma'lumotlari bilan ta'minlash bo'limi boshlig'i, podpol-

kovnik Luiza Madaliyeva, yetakchi mutaxassis, kapitan Islombek Boyjonov, katta inspektor, katta serjant Zafar Ahmedov, Huquqiy statistika bo'limi boshlig'i vazifasini bajaruvchi, podpolkovnik Jamshid Qosimov, yetakchi mutaxassislar – kapitan Shuhrat Esonov va katta leytenant Azizbek Jalolov, shuningdek, Maxsus hisoblar bo'limi kichik inspektori – safdorlar Feruza Fozilova va Nafisa Shamsiyeva jamoamiz faxri hisoblanadi, – deydi bosh markaz boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Sunnatilla Sheranov. – Ularning fidokorona xizmati bilan oldimizga qo'yilgan vazifalar muvaffaqiyatli uddalanmoqda.

Abu KENJAYEV,
fotomuxbir.



«ШУМ БОЛА МЕНИ ХАЛҚ ОРАСИДА ТАНИТДИ»



БАХТЛИ ТАСОДИФ

Хайрулла Саъдиев 1940 йил Тошкент шаҳрида таниқли театр актёри Ҳабиб Саъдий оиласида туғилган. Оилада учинчи фарзанд бўлган Хайруллани отаси тиззасига ўтқазиб, жингалак сочларини силаркан, уруш тугаса, албатта, катта тўй қилиш орзуси борлигини бот-бот такорларди. Ушанда у беш ёшда эди. Олис-олисларда давом этаётган даҳшатли уруш ҳам тугади, лекин орзулари армонга айланган отанинг ҳам умри поёнига етди. Беш бола билан ёлғиз қолган онаизор уларга ҳам она, ҳам оталик қилди. Она сифатида ўзи емай болаларининг оғзига тутди, ота сифатида ҳам меҳр берди, ҳам қатъият ва талабчанлик билан ўстирди. Ҳатто Хайрулла ўқиш ёшига етганда, ортиқча эркалик қилмасин, деб ўзи ишлаётган мактабга эмас, бошқа мактабга берди. Оилада ҳам болаларнинг тарбиясига қаттиқ турди. Уларнинг келажакда олий маълумотли бўлиб, ҳаётда ўз ўрнини топиши учун курашди...

Мактабни тугатган бўлса-да, ҳали бир қарорга келмаган Хайруллани амакиваччаси Ўзбекистон халқ артисти Лутфулла Саъдуллаев Островский номидаги театр ва расомлик институтига бирга боришга кўндиради. Имтиҳонга кирган Хайрулла барча саволларга яхши жавоб беради, монолог, шеър, масал айтади, кўшиқ ижро этади, барча белгиланган синовларни топширади. Лекин таниқли санъаткорлардан иборат ҳайъат аъзолари уни қабул қилишмайди.

Тақдирнинг кутилмаган зарбасидан эсанкираб, институт ҳовлисида хаёл суриб ўтирган йигит «Сиз, мабодо Ҳабибулла аканинг ўғли-масмисиз?» деган сўроқдан ўзига келади. Тасдиқ жавобини олган хушрўйгина аёл афтода ҳолатининг сабабини сўрайди. Хайрулла ҳали ҳаммасини айтиб улгурмасидан, унинг қўлидан ушлаб, тўғри имтиҳон бўлаётган хонага бошлаб киради. Бироз асабийлашган ҳолда, «Сиз кимга сенда овоз йўқ деганингизни биласизми? Ахир бу машҳур ариялар ижрочиси, соҳир

Шундай асарлар бўладик, улар саҳнага қўйилгандан сўнг орадан бир неча ўн йиллар ўтса-да, завқу шавқи, туйилган таассуротлар, қаҳрамонларни жонлантирган актёрларнинг бетакрор иборалари, ўзига хос хатти-ҳаракатлари кўз олдингизда гавдаланаверади. «Шум бола» спектакли ҳам худди шундай шон-шухратга бурканган асарлардан биридир.

Бугун йиллар аро шонли йўлини давом эттириб, томошабинлар қалбида улғувор ҳайкал тиклаган Ўзбекистон халқ артисти Хайрулла Саъдиевнинг умр йўлларига назар ташлаймиз.

овоз соҳиби Ҳабиб Саъдийнинг ўғли-ку...» деб уларни Хайруллага имкон беришга кўндиради.

ТЕАТР БАҲОРИ

Мамлакатимизда театр мавсуми бежиз баҳорда бошланмайди. Баҳор – йилбоши, баҳорда бутун борлиқ баравж бўлади. Театрга ҳам ёш йигит-қизлар умр баҳорининг авж палласида қадам қўйишади...

Устози, Ўзбекистон халқ артисти Назира Алиеванинг қўллови билан талабалар сафига қабул қилинган Хайрулла Саъдиев 1963 йилда институтни тугатиб, Тошхўжа Хўжаевнинг тавсиясига кўра, Ёш томошабинлар театрига ишга келади. Театрда Иброҳим Аредов, Афанди-хон Исмоилов, Воҳид Қодиров, Обид Толипов каби саҳна усталаридан актёрлик санъати сирларини ўргангани унинг ибратхонада ўз ўрнини топишида муҳим аҳамият касб этди.

Х. Саъдиев ижросидаги ўнлаб образлар актёрга чинакам шухрат келтирди.

БИР БАҲР, ИККИ КЕМА

Халқимизда «Икки кеманинг бошин тутган ғарқ бўлар» деган пурмаъно нақл бор. Бу – айна ҳақиқат. Лекин санъат аталмиш бепоён

ролдан ролга ўсиб борди, актёрлик маҳоратининг янги-янги қирраларини намоён этди. У яратган ёрқин ҳажвий образлар кулгисевар томошабинларнинг таҳсини ва олқишларига сазовор бўлди. Маҳоратли актёр ўзининг чуқур мазмунли, теран ва бетакрор образлари билан театр репертуарини бойитди.

Х. Саъдиев Жингалак («Ой бориб, омон қайт»), новвой («Семурғ»), Мамат («Шиддат»), Анвар («Чинор»), куёвнинг дўсти («Тўйлар муборак»), масхарабоз («Маҳмуд паҳлавон»), эртачки чол («Акмалининг саргузаштлари»), Хайрулла («Марҳумнинг хотираси»), Қўрқинч («Арслоннинг саргузаштлари»), чойхоначи («Хумча»), масхарабоз («Марғиёна»), Тойчахон («Алпомиш»), Райҳон қизиқ («Мешполвон») каби роллари билан кино санъатида ҳам ўз имзосини қўйди.

Шунингдек, телевизион спектакль ва фильмларда фаол иштирок



СИНОВЛАРДА СИНМАГАН САБР

Ҳаёт синовларни сабот билан енгиш ҳаммага бирдек насиб этавермайди. Кимдир бу майдонда синалиб, ундан мардона чиқиб кетади. Кимнингдир эса сабри етмай ногоҳ синади...

Ҳамсабоғи ва ҳамкасби Раъно Мадраҳимова билан кечган бахтли онлари ҳам узоққа чўзилмайди. Жигар хасталигига чалинган турмуш ўртоғи ёлғиз фарзандини ёдгор қилиб, бу дунёни эрта тарк этади.

Гоҳ қувонч, гоҳи ғам олиб келган йилларга басма-бас яшаётган устоз актёрни яна бир синов кутиб туради. 2020 йил февралнинг бошида Хайрулла Саъдиев суянган тоғи тўнғич ўғли, ички ишлар органида турли раҳбарлик лавозимларида хизмат қилган, истеъфодаги подполковник Сардор Саъдиевдан айрилди. Аслида бу ҳар бир тирик жон тотиб кўрадиган шароб. Лекин фарзанд доғи тоғдек отани ҳам қулатиши мумкин. Болалиги уруш даврига тўғри келган ва ундан кейинги қийинчиликларни ҳам мардонавор енгиб, бутун вужуди бардошга айланган буюк актёр бу жудолик диёридан ҳам мардонавор ўта олди...

ХУЛОСА ЎРНИДА

Халқ ардоғидаги актёрнинг устози, шогирдига миқёссиз меҳр қўйган Наби Раҳимов уни доим дуо қиларкан, «Яратган сенга минг ой умр берсин», деб алқарди. Мана, отасидек улғув устоз дуоси ижобат бўлиб, халқимизнинг севимли актёри, Ўзбекистон халқ артисти, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси, «Меҳнат шухрати» ордени соҳиби Хайрулла Саъдиев 6 декабрь куни муборак 85 ёшни қаршилайди. Кўп сонли мухлислар номидан устоз санъаткоримизга соғлиқ тилаб, умрлари боқий, ижодлари баравж бўлсин деб қоламиз!

Темир ҚУРБОН.



«Ўтов» фильмидан

уммонда икки кема – ҳам театр, ҳам кинони кўзи устида тутиб, бетакрор образларни яратган буюк санъаткорларимизнинг саноғи салмоқлидир.

Шундай иқтидор эгаси бўлган лавҳамиз қаҳрамони Ёш томошабинлар театрида ишлаган даврларидаёқ ўз ижодий қиёфасига ва услубига эга эди. Ҳажвий образларнинг моҳир устаси сифатида томошабинларга танилган санъаткор бу театрда ўн йилдан ортиқ ишлаб, актёрлик маҳорати ошиб, ижоди шаклланган бир пайтда, яъни 1986 йилда янги ташкил этилган Сатира театрига ишга таклиф этишади. Бу театрда ҳам ўз томошабинини топган Х. Саъдиев ўз устида тинмай ишлади, ижодий изланиб,

этиб, «Шум бола»да Шум бола, «Излайман»да Анвар, «Учрашув»да Собир, «Шайтанат»да Жалил каби ўзига хос қаҳрамонларни гавдалантирган моҳир актёр махсус театрлашган дастурларда Афанди, асабий одам, лектор каби образларни ҳам яратган.

Бундан ташқари, таниқли актёр «Наштар» киножурналида қатнашиб, бир қатор пухта образлари билан мухлислар қалбидан муқим жой эгаллади. Икки юздан ортиқ фильмларнинг дубляжида иштирок этди. Шунингдек, телевизион миниатюралар театрининг доимий қатнашчиси бўлган санъаткорнинг Ўзбекистон телевидениеси ва радиосида яратган образларини ҳам томошабинлар илиқ кутиб олди.

Жертвы репрессий

ЧЕЛОВЕК, КОТОРЫЙ ВЫСТОЯЛ

1980-е годы обернулись для Узбекистана трагическими событиями: в республике действовала группа «десантников», возглавляемая следователями Генпрокуратуры бывшего Союза. Она сеяла атмосферу беспочвенных подозрений и недоверия, «назначала виновных», не гнушаясь при этом фабрикации уголовных дел. Жертвой водоворота несправедливости стал и Владимир Мулин.

Родился В. Мулин 30 июля 1942 года в Ташкенте. В годы войны его отец после ранения был отправлен в госпиталь в Ленинабад (ныне Худжанд). Сюда же с мамой переехал и малолетний Володя.

В 1947 году семья обосновалась в Чирчике. Здесь Владимир учился в школе, началось формирование его характера.

Необычайная работоспособность проявилась в нем с юности. После окончания школы №12 в 1959 году, Владимир, освоив профессию сварщика, трудился на Юмалакском комбинате железобетонных изделий.

1961-1964 годы. Срочная служба в армии. Сначала в Самарканде, затем в качестве замкомандира разведвзвода танкового полка в Казанджике

(ныне Берекет) в Туркменистане. Пройдя подготовку на специальных курсах, получил первое офицерское звание «лейтенант».

Демобилизовавшись, В. Мулин вернулся в Чирчик. Работал в ГСПТУ-34 мастером производственного обучения, заместителем директора по воспитательной работе.

В 1971 году перспективного сотрудника для усиления кадрового состава направляют в органы внутренних дел. В ОВД города Чирчика прошел ступени от рядового милиционера до заместителя начальника ГОВД. Параллельно получил юридическое образование в ТашГУ.

В 1977 году В. Мулина назначают начальником ОВД города Ангрена, а в 1979 году – заместителем начальника УВД



Фото из архива.

Бухарской области по кадрам. Это была образцовая карьера офицера, чье служение обществу не вызывало сомнений.

* * *

В 1983 году молох репрессивной машины обрушился на полковника Владимира Мулина и его коллег. Следствие длилось вплоть до мая 1986 года. За сфабрикованными протоколами и постановлениями стояла искалеченная судьба невинного человека. В. Мулин был приговорен к 12 годам лишения

свободы. Став жертвой навета, он отбыл в местах заключения 5 лет и 4 месяца.

* * *

Правда, которую так легко попирали «десантники», восторжествовала спустя годы. Постановлением Пленума Верховного Суда Республики Узбекистан от 11 сентября 1998 года В. Мулин в связи с отсутствием в его действиях состава преступления был полностью реабилитирован.

После освобождения герой очерка вернулся в Бухару. Он не озлобился. «Он остался человеком с большим сердцем», – так говорят о нем те, кто его знает.

Владимир Васильевич работал юрисконсультантом в агропредприятии, в Региональном центре стандартизации, метрологии и сертификации. Трудился на совесть вплоть до 70 лет, не мысля жизни без работы.

Сегодня заслуженный пенсионер ОВД полковник в отставке А. Мулин активно участвует в деятельности ветеранской организации УВД Бухарской области.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

Республика Каракалпакстан

НАПРАВЛЯЯ МОЛОДЕЖЬ НА ПРАВИЛЬНЫЙ ПУТЬ

Система образования и воспитания включает целый комплекс процессов, в ходе которых у подрастающего поколения формируются мировоззрение, культура поведения и моральные ориентиры. В стремительно меняющемся мире это приобретает особое значение. Расширение возможностей интернета и социальных сетей, наряду с пользой, несет и определенные риски.

По всей стране инспекторы профилактики ведут системную работу по предупреждению правонарушений и преступности среди студентов. Одним из таких специалистов является старший инспектор по вопросам профилактики правонарушений подполковник Турсинай Карлыбаева.

...Четверо студентов Каракалпакского медицинского института наткнулись в социальных сетях на рекламу частной фирмы «W.W-travel», обещавшей быстрое оформление документов для выезда на сезонную работу за рубеж. Связавшись по указанному номеру, они поверили уверенным обещаниям мошенников и передали каждый по 3 миллиона 900 тысяч сумов. Когда «посредники» прекратили

выходить на связь, стало ясно, что студенты стали жертвами обмана. Благодаря расследованию, проведенному подполковником Турсинай Карлыбаевой, закрепленной за данным институтом, деньги удалось вернуть.

– Мы не только проводим профилактическую-разъяснительную работу среди студентов, но и занимаемся изучением и решением их проблем, отслеживаем социальное положение, оказываем поддержку, помогаем урегулировать возникающие разногласия, – говорит Турсинай.

В Каракалпакском медицинском институте, обучается около 3 тысяч студентов, из них почти 1400 – учащиеся бакалавриата. Среди них есть приезжие из регионов республики, а также из соседних государств –



Казахстана и Туркменистана.

Инспектор совместно с тьюторами посещает квартиры, где проживают студенты. Изучаются бытовые условия, вы-

являются возможные проблемы. Нередко возникают ситуации, когда владельцы арендованного жилья по различным причинам требуют освободить квартиру раньше

оговоренного срока. В таких случаях инспектор помогает определить законный порядок действий, отстаивать права студентов либо содействует поиску альтернативного жилья.

Турсинай Карлыбаева следует примеру своего отца – Жолдасбая Карлыбаева, который долгие годы служил в системе органов внутренних дел и вышел в отставку в звании подполковника.

Ее путь начался в отделе миграции и оформления гражданства, а с 2009 года она продолжает деятельность в Управлении профилактики правонарушений. Несмотря на сложный и ответственный характер службы, она успешно сочетает работу с семейными обязанностями. Вместе с супругом Куанышбаем Баймуратовым они воспитывают двух сыновей – Бобомурада и Бекмурата.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.



КЎПНИ КЎРГАН КЎП БИЛАР

«Ўғриларнинг изига тушиб бўлмапти, узоқ йиллар профилактика инспектори бўлиб ишлагансиз, жиноятни очиш учун қандай йўл тутганимиз маъқул?» Бошлиқнинг бу гаплари Абдусалом Турсунбековга маслаҳат сўрашдан кўра топшириқдек эшитилди. Раҳбар ўғриликларнинг бир қисми у яшайдиган маҳаллада юз берганига ишора қилган бўлса, ажаб эмас.

Мана шу ўй майорни қандай бўлмасин, жиноятни фош қилмоққа ундади. Ишни чорва моллари ўғриликлари бўйича тўпланган маълумотларни ўрганишдан бошлади. Кейин бор диққатини Фаллаорол туманининг «Аламли» маҳалласига қаратди. Жумладан, ўғирланган учта қорамол ва битта қўйнинг эгалари билан суҳбатлашди. Муқаддам судланган, ҳар жойда ҳозир у нозир шахслардан маълумот олишга уринди. Унинг суҳбатлари «Аламли»га бегона ораласа ёки ноодатий ҳолатга гувоҳ бўлсангиз, менга маълум қилинг» деган жумла билан яқунларди.

Бир ҳафта деганда танишларидан бири унга қўнғироқ қилиб, қўшнисиникига шубҳали йигит кириб кетганини билдирди.

Айтилган манзилга етиб борганида гумон қилинувчи бир маст кимса билан мушталашаётгани. Жанжал йигитнинг ИИБ биносига олиб кетилишига сабаб бўлди. Худди шундай, гумонланувчи меҳмон бўлган уйнинг эгаси ҳам олиб келинди. Суриш-



тирув давомида ўғриликлар рўй берган саналарда йигитларнинг қаерда бўлгани текширилди. Худди шундай, улар билан яқин алоқада бўлганлар кузатувга олинди. Натижада жиноят фош этилди. «Сарбозор» маҳалласида истиқомат қилувчи 3 нафар йигит чорва моллари ўғрилигини касб қилгани, бу гуруҳнинг Фаллаорол туманининг турли маҳаллаларида юз берган 9 та жиноятга алоқадорлиги аниқланди. Уларнинг охириги ўлжалари бўлмиш иккита қорамол эгаларига қайтарилди...

Вилоят ички ишлар органларида қарийб 30 йил хизмат қилган лавҳамиз қаҳрамонининг тақдирини соҳанинг кўпчилиги вакиллари-

ниқидан унчалик фарқ қилмайди. У соҳадаги фаолиятини 1985 йилда Фаллаорол тумани ИИБ Қўриқлаш бўлимида бошлаган. Кейин вояга етмаганлар масалалари бўйича инспектор, профилактика инспектори, шахсий таркиб билан ишлаш гуруҳи катта инспектори, ЖҚБ катта тезкор вакили бўлди.

2019 йилда Фаллаорол туманидаги 5 та қишлоқни сел босганида А.Турсунбеков табиий офат оқибатларини бартараф этишга жалб этилган шахсий таркибни бошқарди. Ўша кунларда соҳа вакиллари қутқарув ишларини амалга оширишди. Сўнг ҳаммаси изига тушиб кетгунга қадар ҳудудда қолдирилган мол-мулкларни қўриқладилар. Бу жараёнда у ажойиб ташкилотчи сифатида ўзини намоён қилди.

Хизмат фаолиятини 2014 йилда Фаллаорол тумани ИИБ бошлиғи ўринбосари лавозимида яқунлаган истеъфодаги подполковник А. Турсунбеков мана, ўн йилдирки, туман ИИБ Фахрийлар кенгаши раиси ўринбосари. Фахрийлар билан боғлиқ тадбирлар усиз ўтмайди. Шахсий таркибнинг ватанпарварлик руҳини кучайтириш ҳамда хизмат интизоми ва қонунийликни мустаҳкамлашга қаратилган ишларда ҳиссаси катта.

Абдусалом аканинг оиласи ҳам ҳавас қилгудек. Турмуш ўртоғи Наргис опа умрини ўқитувчиликка бағишлаган. Улар улғайтирган уч қиз ва бир ўғил ҳаётда ўз ўрнини топган.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
журналист.

Жиззах вилояти.

KONSTITUTSIYA MENING TAQDIRIMDA

UMUMMAS'ULIYAT YUKLAYDI

О'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini bejiz baxtimiz qomusi deya tavsiflamaymiz. Chunki ushbu mo'tabar hujjatda huquq va erkinliklarimiz kafolatlangan.

Men aynan Asosiy qonuni-miz qabul qilingan yilda taval-lud topib, unda belgilangan imkoniyat va sharoitlardan foydalanib voyaga yetdim. Dastlab umumta'lim maktabida bilim oldim. Keyin IIV Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurtini tugatdim. Bugungi kunda huquq-tartibotni himoya qilish, osoyishtalikni ta'minlashdek sharaflı vazifani bajarib kelmoqdaman. IIV huzuridagi JIED Oltinchi mintaqaviy hudud 2-son Tergov hibsonasi jismoniy va jangovar tayyorgarlik guruhi katta inspektori lavozimida xizmat qilyapman.

Albatta, jamiyat hayotidagi o'zgarishlar qonunlarni ham takomillashtirib borishni talab qiladi. Shunga mos ravishda Bosh qomusimizning mazmun-mohiyati xalq manfaatlariga mos ravishda boyitilib, inson qadri oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan siyosiy-huquqiy hujjat bo'ldi. Xususan, unga



muvofig «Inson-jamiyat-davlat» tamoyili islohotlarning bosh mezoniga aylandi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya singari sohalardagi kafolatlar yangi bosqichga ko'tarildi.

Ta'kidlash joizki, Konstitutsiyamizning 28-moddasida shaxs huquqlari va aybsizlik

prezumpsiyasi haqidagi prinsiplar o'zida aks ettirilgan. Ushbu moddaga ko'ra, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan

hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin.

Tergov hibsonasi xodimlari uchun bu qoidalar juda muhim. Biz xizmat vazifamizni bajarish chog'imizda har bir shaxsning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, aybsizlik prezumpsiyasiga amal qilish va insoniy muomala qilishga mas'ulmiz. Shaxsга nisbatan qonuniylikka rioya etish, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish – bizning asosiy vazifamizdir.

Xulosa tariqasida aytadigan bo'lsam, bugun mamlakatimiz huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurish yo'lidan dadil bormoqda. Bunda qonunchiligimiz asosi bo'lgan Konstitutsiyamiz bizga nafaqat huquqiy, balki ma'naviy mas'uliyatni ham yuklaydi.

Aydos XUDAYBERGENOV,
mayor.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

HUSHYORLIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLAYDI



Toshkent xalqaro aeroporti nafaqat mamlakatning poytaxti bilan xalqaro havo aloqasini ta'minlaydi, balki yurtimiz iqtisodiyoti va turistik salohiyatini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi.

Statistikaga murojaat qiladigan bo'lsak, Toshkent shahri aeroportlari 2025-yilning 10 oyi davomida 65939 ta reysni amalga oshirgan bo'lib, 8260452 nafar yo'lovchiga xizmat ko'rsatgan. Shundan xalqaro aeroport orqali 25759 ta reyslarda 3551065 nafar yo'lovchi kuzatildi, 25668 ta reysda esa 3553250 nafar yo'lovchi kelgan.

Xavfsizlik choralari aeroport faoliyatining asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Yo'lovchilar, ekipaj va aeroport hududining xavfsizligini ta'minlash maqsadida zamonaviy nazorat tizimlari



joriy etilgan, patrul xizmatlari yo'lga qo'yilgan va boshqa choralar ko'rilgan. Sohaviy xizmat xodimlari yo'lovchilarning tinchligi va xavfsizligini ta'minlashda alohida ahamiyatga egadir.

Joriy yilning o'tgan 10 oyi davomida Toshkent shahri aeroportlarida xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi PPX otryadi xodimlari tomonidan 4883 nafar shaxs bilan profilaktik suhbatlar o'tkazildi. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar haqida kelib tushgan ma'lumotlar asosida ular navbatchilik qismiga topshirildi. Ularning 1093 nafariga



ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib, qonuniy choralar ko'rildi. Shuningdek, jinoyat sodir etib, qidiruvda bo'lgan 6 nafar shaxs qo'lga olingan va 1 nafar bedarak yo'qolgan fuqaro topilgan. Toshkent shahri aeroportlarida olib borilgan «Tig'» profilaktik tadbiri davomida 8 nafar fuqaro yoni-

dan o'tkir tig'li jism topilib, ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirildi. Mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlar bilan bog'liq turli vaziyatlar ham ro'y berib turadi. Yaqinda shunday holatlardan biri Toshkent mahalliy aeroportida yuz berdi.

O'zbekistonga sayyoh sifatida kelgan falastinlik Xaliliya Zoabi ismli ayol xayol bilan ichida puli, qimmatbaho buyumlari bo'lgan qo'l sumkasini aeroportda unutilib qoldiradi. Hududda xizmat olib borayotgan Toshkent shahri aeroportlarida xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi PPX otryadi safdor xodimi Farrux Olimov sumkani topib oladi.

Oradan taxminan bir soat o'tgach, xavotirlangan holda sayyoh aeroportga qaytadi va sumkasini yo'qotib qo'ygani ma'lum qiladi. Xodimlar topilgan sumkani qonuniy tartibda egasiga topshirishadi. Sayyoh sumkani ochib ko'rganida, undagi 45 ming AQSH dollari, bir dona uyali telefon apparati, qimmatbaho taqinchoqlari – jami taxminan 80 ming AQSH dollari qiymatidagi buyumlarning hech biri yo'qolmaganini ko'rib, bu halollikdan ta'sirlanib, ko'zlariga yosh keldi.

Darhaqiqat, xodimlarning hushyorligi va halolligi nafaqat yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlaydi, huquqbuzarliklarni bartaraf etadi, balki ularning fidoyi xizmati orqali mamlakatimiz xalqaro maydonda xavfsiz va ishonchli davlat sifatida e'tirof etilishiga ham alohida hissa qo'shadi. Ana shunday voqealar orqali yurtimizning obro'si va nufuzi yanada mustahkamlanadi.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.
Abu KENJAYEV olgan suratlar.

ZARARLI MAHSULOTLAR SOTILMAYDI

Farg'ona viloyati IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi xodimlari tomonidan hududiy veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish xizmatlari, sog'liqni saqlash hamda boshqa mutasaddi idoralar bilan hamkorlikda bozorlar va savdo majmualarida iste'molga yaroqsiz mahsulotlarni sotayotgan ayrim noinsof kishilar aniqlanib, ularga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishi ta'minlanmoqda.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida viloyatdagi dehqon bozorlarida 1520 marotaba, mol (hayvon) bozorlarida 472 marotaba, savdo majmualarida esa 446 marotaba maqsadli profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Mas'ul idoralar bilan hamkorlikda uyushtirilgan maxsus reydlar davomida, veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya etmagan 216 nafar shaxs aniqlandi. Ularga nisbatan



81 mln 740 ming so'm miqdorida jarima qo'llanildi.

Farg'ona shahar dehqon bozorida o'tkazilgan tadbirda 2671 kg go'sht, 2151 litr sut va 3247 dona tuxum, 450 kg noma'lum sharoitda tayyorlangan mahsulotlar, Marg'ilon shahar dehqon bozorida 1047 kg go'sht, 2 100 litr sut va 2 390 dona tuxum, 375 kg parranda go'shti, O'zbekiston tumani dehqon bozorida esa 1786 kg go'sht, 2 666 litr sut va 6 370 dona tuxum, 628 kg baliq mahsulotlarining sotuviga ruxsat berilmadi va ular belgilangan tartibda yo'q qilindi.

Mahallalarda o'tkazilgan tadbirlar davomida sifatsiz va yaroqsiz mahsulotini o'tkazishga uringan kimsalar aniqlanib, ularning mahsulotlari qonuniy tartibda yo'q qilinmoqda.

Muslimjon G'OPUROV,
leytenant.

Farg'ona viloyati.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

VIJDON QAL'ASI MUSTAHKAM BO'LSA...

Xorazm viloyati

Korrupsiyaga qarshi kurashish haqida ko'p gapiriladi. Lekin ba'zan birgina voqea butun tizimda qanday o'zgarishlar sodir bo'layotganini boshqalardan ko'ra aniqroq ko'rsatadi. So'nggi ikki holat — aynan shunday ko'zgu. Ularda xodimlarning halolligi, xizmat burchiga sadoqati va jamiyatga bo'lgan mas'uliyati yaqqol namoyon bo'ldi.

Birinchi holat. Tonggi yo'lda boshlangan sinov.

Soat hali 07:05. Ko'chalar «uyg'onib» ulgurmagan, biroq viloyat IIB JXX YHXB bo'linmalari YPX batalyoni 2-safarbar guruhi YPX inspektori, safdor Sarvarbek Sotliqov allaqachon xizmatda edi. To'xtatilgan «Lacetti» avtomashinasi haydovchisidan spirtli ichimlik hidi anqib turardi. Tekshiruv natijasi ham buni tasdiqladi: haydovchi 627 mg/l darajada mast. Bu — o'zi bilan birga boshqalarning hayotiga ham xavf soladigan holat. Daf'atan haydovchi vaziyatni yengillashtirish uchun inspektorga 10 million so'm uzatmoqchi bo'ldi. Go'yo qonunni pul bilan almashtirish mumkin degandek... Ammo Sarvarbek to'g'ri yo'lni tanladi. Pora berayotgan paytda haydovchining o'zi ushlandi, barcha ish rasmiylashtirildi.

Bu voqea shuni ko'rsatdiki, tizim halollik bilan nafas ola boshlagan joyda poraga imkon qolmaydi.

Ikkinchi holat. Toshqin oldidan sukut.

To'rtko'l tumani... Sokin boshlangan kun viloyat IIB M va FRB MTB inspektori, mayor Umidbek Yusupov uchun sinovga aylandi. Qurilish bilan shug'ullanadigan fuqaro M. Taganderdiyev mayor huzuriga kelib, 10 nafar xorijlik ishchisi ma'muriy javobgarlikka tortilayotganini aytdi. Bu qonuniy jarayon edi. Ammo fuqaroning keyingi harakati — qonuniy yo'lni pul bilan o'zgartirishga urinish edi. U mayor Yusupovga 18 million so'mlik pora taklif qildi. U shuni o'yladi: «Pul bo'lsa,



sa, muammo bo'lmaydi». Lekin unutilgan bir haqiqat bor: halollikni pul bilan sotib olib bo'lmaydi. Mayor Yusupov noqonuniy taklifni rad etdi. Aslida rad etishning o'zi ham jasorat. Chunki pora — odamni boshqalarning ko'ziga ko'rinmaydigan joyda sinaydigan dushman. Fuqaro aynan pora uzatmoqchi bo'lgan paytda qo'lga olindi, holat rasmiylashtirildi. Bu ham tizimdagi halollikning yana bir namunasi.

Xulosa shuki, Sarvarbekning tongdagi qarori ham, Umidbekning sokin kun ichidagi qat'iyati ham bitta haqiqatni isbotlaydi: tizim halol xodimlar tufayli mustahkamlanadi. Pul bilan o'zgartirilmaydigan qarorlar esa jamiyatni korrupsiya atalmish illatdan tozalaydi.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati

Halol mehnat qilish o'rniga, harom yo'l bilan pul topishni maqbul deb bilgan kimsalar oxir-oqibat qonun oldida javob berishiga to'g'ri keladi. Eng yomoni esa, qonunbuzarlikka qo'l urgan ayrim shaxslarning o'z aybini, qilmishini pora orqali yopishga urinishidir.

Qarshi shahrida joylashgan sauna ish yurituvchisi S.A. va elektr ustasi V.S. o'zaro kelishib, bu yerda fohishaxona tashkil etadi. Shahar IIOFMB xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirda S.A. mijozlarga zino qilish uchun sharoit yaratib berish evaziga 400 ming so'm miqdoridagi pulni olgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlanadi.

Holat yuzasidan Qarshi shahar IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limi tomonidan S.A.ga nisbatan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atiladi.

Daslabki tergov harakatlari olib borayotgan vaqtda katta tergovchi, katta leytenant Azizbek Xudoyberdiyevning oldiga kelgan elektr ustasi, ya'ni, S.A.ning shar'iy turmush o'rtog'i V.S. jinoyat ishining ayoliga oid qismini harakatdan tugatish va qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llamaslik evaziga 2000 AQSH dollari miqdorida pora taklif qiladi. U tergovchining pora berish jinoyat ekani to'g'risidagi ogohlantirishlariga qaramasdan, o'z niyatidan qaytmaydi. Natijada katta leytenant Azizbek Xudoyberdiyev jinoyatchining xatti-harakati bo'yicha boshqarma rahbariyatiga bildirgi bilan murojaat etadi.

Hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbirda V.S. va'da qilingan puldan 100 AQSH dollarini tergovchi A.Xudoyberdiyevga pora tariqasida bergan vaqtda ushlandi.

Hozirda mazkur holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilmoqda.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

СПОРТ

МАЙДОНДА – ФАХРИЙЛАР

Ўзбекистон футбол ассоциацияси, «Veteran» жангчи-фахрий ва ногиронлари бирлашмаси ҳамда Қуролли Кучлар тизимидаги фахрийлар кенгашлари ташаббуси билан Олий лига тузилиб, унда ҳар йили мини-футбол бўйича республика мусобақалари ўтказиб келинмоқда.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси ташаббуси билан Футбол ассоциацияси ҳамкорлигида 8 декабрь – Ўзбекистон Республикаси Конституцияси куни муносабати билан Қуролли



Кучлар фахрийлари футбол жамоалари ўртасида «Ҳарбий прокурор кубоги» мусобақаси бўлиб ўтди.

Мусобақа якунида ИИБ фахрийларидан иборат «Пос-бон» жамоаси фахрли учинчи ўринни эгаллади. Шунингдек, юқори натижа кўрсатган ўйинчилар орасида жамоа ҳужумчиси, истеъфодаги катта сержант Азизхон Мухторов 12 та гол билан «Энг яхши тўпурар» номинацияси ғолиби бўлди.

Фахрийларимизга кейинги мусобақаларда ҳам бундан-да юқори натижаларни қўлга киритишларини тилаб қоламиз.

Ўз мухбиримиз.

★ «Безопасная и здоровая страна»

КОНТРОЛЬ УСИЛЕН

В целях обеспечения общественной и дорожной безопасности, а также предотвращения чрезвычайных ситуаций на объектах повышенной опасности, УБДД СОБ УВД города Термеза провело масштабную профилактическую акцию. Данное мероприятие прошло в рамках оперативно-профилактического мероприятия «Безопасная и здоровая страна».

Основной фокус профилактической работы был направлен на местные автомобильные газозаправочные станции, которые являются потенциальными источниками опасности при нарушении правил эксплуатации. Сотрудники УБДД провели серию встреч и ин-

структажей с рабочим персоналом АГЗС. В центре внимания оказались критически важные аспекты безопасной эксплуатации газового оборудования и транспортных средств: сотрудникам АГЗС было строго указано на необходимость отказа в обслуживании авто-



мобилей, техническое состояние которых не соответствует нормам безопасности и может спровоцировать аварию или возгорание во время заправки. Особое внимание уделено выявлению и недопущению заправки автомобилей, оснащенных газовыми баллонами кустарного производства, с истекшим сроком эксплуатации или баллонами, тип которых запрещен к использованию в нашей стране. Проведены разъяснения о строгом соблюдении технологических регламентов и недопустимости оказания услуг по заправке с превышением допустимых норм давления, что является прямой угрозой взрыва баллона.

По итогам проведенных профилактических бесед и инструк-

тажей, со всех сотрудников газозаправочных станций были взяты письменные расписки, подтверждающие их ознакомление с требованиями безопасности и принятие на себя ответственности за строгое соблюдение установленных правил. Эта акция подчеркивает серьезность намерений правоохранительных органов по повышению уровня безопасности в регионе и недопущению трагических инцидентов, связанных с нарушениями на объектах газового хозяйства. УВД города Термеза продолжит мониторинг и контрольные мероприятия для обеспечения безопасности граждан.

Соб. корр.

Сурхандарьинская область.



★ Конституция в моей судьбе

ДОЛГ, ОБРАЗОВАНИЕ И СЕМЬЯ

Будучи сотрудником Управления по обеспечению безопасности в метрополитене МВД Республики Узбекистан я считаю Конституцию Республики Узбекистан не просто сводом законов. Я вижу ее действие не только в служебных документах, но и в своей собственной судьбе.

Мой путь к службе начался с права на образование, которое закреплено в Конституции.

Благодаря этой гарантии и системе доступного образования, я смог получить необходимые знания и навыки.

А главное, Конституция дала мне право на свободный выбор труда.

Я сам, по зову сердца и долга, выбрал службу в органах внутренних дел, в частности, работу по обеспечению безопасности в метрополитене. Моя работа – это осознанный выбор, а не навязанная обязанность. Именно Конституция является гарантом этого выбора.

Недавно произошло самое важное событие – я создал ячейку общества, свою семью. Мы с супругой живем, основываясь на принципах законопослушности и уважения.

Эти нормы дают уверенность в завтрашнем дне. Мы с супругой законопослушные граждане и знаем, что государство обеспечивает благоприятные усло-



вия для развития и благополучия наших детей.

Служба – это не только оперативная работа, но и постоянная профилактика. Мы регулярно проводим беседы с гражданами, разъясняя правила поведения, права и обязанности.

Я постоянно контактирую с людьми, и для меня принципиально важно, чтобы каждый гражданин понимал, что он не просто субъект обязанностей, но, прежде всего, носитель прав и свобод, которые защищены Основным Законом.

Для меня служение Отечеству – это честь. А жить, работать и создавать семью под защитой и по принципам Конституции – это истинное счастье и привилегия. Каждый гражданин должен знать свои права и обязанности, ведь только так мы сможем построить Новый Узбекистан – государство, где высшая ценность – это человек, его жизнь, права и свободы.

Хожиакбар НОРБУТАЕВ,
старший лейтенант.

★ А вы знали?

ХИМИК, КОТОРЫЙ КЛЕИЛ ЧЕМОДАНЫ

Знаменитый создатель Периодической системы, Дмитрий Иванович Менделеев, был не только гениальным химиком, но и... известным чемоданных дел мастером!

Это было его любимое хобби: в свободное от науки время он с увлечением занимался переплетным и картонным делом, а затем и изготовлением дорожных сундуков. Говорят, что он даже разработал свою собственную, особо прочную клеевую смесь, используя познания в химии, чтобы его изделия были самыми крепкими.


В Санкт-Петербурге и Москве его добротные чемоданы пользовались большим спросом. Купцы, чтобы поднять цену, частенько говорили: «Это от самого Менделеева!»

Сам ученый очень ценил это признание. Однажды в лавке, где он покупал материалы, продавец представил его другому покупателю именно так: «Это же известный чемоданных дел мастер Менделеев!» – и Дмитрий Иванович был очень доволен такой характеристикой.



MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSÍ

MA'NAVIY BARKAMOLLIK – XIZMAT INTIZOMI VA MAS'ULIYATNING ASOSI



Ma'naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo'lsa, xalqimiz ham, davlatimiz ham shuncha kuchli bo'ladi.

Shavkat MIRZIYOYEV

Inson ma'naviyatini yuksaltirmasdan turib, xalqimiz hayoti va turmush darajasini oshirish, muvaffaqiyatlarga erishish mushkul. Shuning uchun ham Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada takomillashtirish, uning samaradorligini ta'minlash jarayonida yosh avlodni har tomonlama yetuk, zamon talabiga to'la javob beradigan yuqori malakali mutaxassis, shu bilan birga, ma'naviy va ma'rifiy, axloqiy, ruhiy va jismoniy jihatdan barkamol, Vatanga, el-yurtga sadoqatli kishilar qilib tarbiyalash dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Ma'naviy barkamollikka erishishda, albatta, shaxs ma'naviyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ma'naviyati yuksak shaxslar davlat hududida yashayotgan aholining aksariyat ko'pchiligini tashkil qilgan sharoitdagina tinchlik, mehr, muhabbat, fuqarolar va millatlar o'rtasida hamkorlik, jipslik kabi fazilatlar mustahkam bo'ladi va davlat barqaror rivojlanib boradi.

Biz shunday jamiyatda yashamoqdamizki, har bir shaxs, har bir xalqdan jahon tamadduni erishgan barcha ma'naviy-madaniy qadriyatlarni o'zlashtirgan holda, jahon andazalari darajasida fikrlay olish, o'z milliy ma'naviy-madaniy merosimizni jahon miqyosiga olib chiqa bilish talab etiladi.

Barcha sohalar singari, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi o'rtasida ham ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat jihatdan yangi pog'onalarga ko'tarish, xodimlarning bilim saviyasini yanada yuksaltirish, ma'naviyatli, vatanparvar, o'z kasbiga sadoqatli va fidoyi xodimlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xodimning ma'naviy qiyofasi to'g'rilik, halollik, hayo-nomus,

oriyat, g'urur va vatanparvarlik kabilarda namoyon bo'ladi.

To'g'rilik va kamtarlik inson xulqining bezagidir. To'g'ri yo'l – el yo'ldoshi, deyiladi maqollardan birida. Buyuk ajdodlarimiz ma'naviy merosida ham to'g'rilik, rostgo'ylik haqida keng tushunchalar berilgan. Ularning butun hayot-faoliyati insonning ma'naviyati, baxt-saodati, xalqning osoyishtaligi, mam-lakat farovonligi, obodonchilik ishlari, mehr-muruvvat, ilm-fan, san'at va adabiyotning ravnaqiga bag'ishlangan.

Halollik – insonlar uchun ruxsat qilingan yaxshi, ijobiy ishlar, xatti-harakatlar majmuasi bo'lib, mehnat evaziga topilgan narsalardir. U inson tabiatidagi eng go'zal tuyg'u sifatida o'zgalarning mehr-muhabbatini qozonadi. Buyuk alloma Mahmud az-Zamaxshariy bu haqda shunday nasihat qiladi: «Halol va pokiza kishi doimo xotirjam-u tinchlikda, bironvga xiyanat-u yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftor». Shuning uchun ham ota-bobolarimiz halollikka alohida e'tibor qaratgan.

Hayo – yaxshilikning dalilidir. O'z nojo'ya xatti-harakatlaridan, ishlaridan uyalish hissi faqat odamlargagina xos xususiyatdir. Jurjoni: «U nafsning bir narsadan tortinishi va malomatdan hazir bo'lib uni tark qilishidir», degan. Farzandlarimizni sharm-hayoli qilib tarbiyalash milliy tarbiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Oriyat – inson ma'naviy qiyofasiga xos izzat-nafs, qadr tuyg'ularini ifodalovchi tushuncha. Oriyatli inson o'zi va oilasi, millati va Vatanning izzat-nafsini, qad-rini yuksak tutadi. U o'zini ham, o'zgalarni ham qadrlay oladi. Inson ori-yati o'z oilasi va butun millatning ori-yatini ifoda etadi. O'zgalar qadr-qimmatini, sha'nini

o'z qadr-qimmatini, sha'ni darajasida ko'radigan ori-yatli inson yuqori obro'ga ega bo'ladi. U hamisha adolat uchun kurashadi, bunda uning eng asosiy ko'makchisi pok vijdonidir. Oriyatli insonlar o'zlari va oilalarining, tug'ishganlarining izzat-nafsi, qadri, hurmatini yuksak tutib, uning boshqalar tomonidan toptalishi, haqorat qilinishi va hurmatsizlanishiga loqaydlarcha qarab turilmaydi.

Vatanparvarlik deganda, yurt oldidagi mas'uliyat va burch tushuniladi. Vatanparvarlik tamoyili Vatan tushunchasini fidoyilarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi singari omillar bilan bog'liq. Inson Vatan manfaati, qadr-qimmatini, taqdiri va istiqbolini qancha ko'p anglasa, vatanparvarlik tuyg'usi shunchalik baland bo'ladi. Haqiqiy vatanparvarlik millat, Vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo'lida mehnat qilish va kurashishdir. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Zero, vatanparvarlik uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy tuyg'udir. Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash esa hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan muhim masala hisoblanadi.

Demak, ichki ishlar organlari xodimlari ongiga yurtga daxldorlik tuyg'ularini singdirish, ularda xizmat burchini bajarish borasida qat'iy hayotiy e'tiqodni qaror toptirish, ularning Vatan va xalq taqdiriga, davlatimiz hamda islohotlar talablariga sodiqligini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy barkamol, ma'naviyatli, mas'uliyatli xodim xizmat intizomiga qat'iy rioya qiladi. Qonun doirasidan chetga chiqmasdan, o'z vazifalarini sidqidildan bajaradi.

Ichki ishlar organlari xodimlari xizmatni bevosita fuqarolar ko'z o'ngida amalga oshiradi, demakki, fuqarolar bilan muloqotda ochiq va samimiy bo'lish, dardini eshitish, ularning murojaatlari bilan ishlashda adolatli bo'lishi zarur.

Sir emaski, keyingi paytlarda xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilish, ularni haqorat qilish, xatti-harakatlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatish bilan shantaj qilish holatlari ham uchrab turibdi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda osoyishtalik posbonlarini obro'sizlantirish, noxolis axborotlarni bo'rttirib ko'rsatish holatlari kuzatilyapti. Bunday sharoitlarda soha vakillari el orasida obro' qozonishlari, o'z imijini oshirishi uchun, avalambor, zimmalaridagi vazifalarni sidqidildan bajarishlari lozim. Har bir xodim fuqarolar bilan muloqotda xushmuomala bo'lishi, kasbiy va huquqiy bilimlarini mut-tasil oshirish ustida tinmay izlanishi zarur. Ana shundagina muayyan maqsad va muddaolarga erishiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy barkamolligi, ya'ni Vatan va xalq manfaatlarini har narsadan ustun qo'yib, xizmat burchiga sodiq qolishi, odob-axloq qoidalarga va muomala madaniyati talablariga, xizmat intizomi va qonunlarga qat'iy rioya etishi, shuningdek, yosh xodimlarda shu kabi fazilatlarini shakllantirishda jamoaning o'rni va ta'sirini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Azizjon FAYZIYEV,
podpolkovnik.



Maqolani qoraqalpog' tilda ushbu QR-kod orqali o'qishingiz mumkin.

XIZMATLARDA

FIDOYI POSBONLARNING
BORIGA SHUKUR

Ayni damda Shayxontohur tumani IIOFMB M va FRB xodimlari aholini fuqaroligi va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bilan ta'minlayapti, migratsiya jarayonlarini qonun talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshirishmoqda.

– Yoshim 67da – deydi fuqaro Jamila aya Yusupjonova. – O'zim yurishga qiynalaman. Keksaligimni, nogironligimni hisobga olib shaxs guvohnomasi – ID-kartamni xodimlar uyimga kelib rasmiylashtirib berishdi. Ularning xushmuomalaligidan ko'nglim ko'tarildi. Men singari ko'makka muhojirlarning og'irini yengil qilayotgan ko'ngli ochiq, samimiy, fidoyi posbonlarimizning boriga shukur.

– Men dog'istonlikman, millatim lakets, – deydi Xizri Alilov. – Taqdir taqozosiga ko'ra O'zbekistonga kelib, yaqinlarim bilan shu yerda yashayman. O'zbeklar bag'rikeng xalq. Ba'zan fuqaroligim yo'qligi uchun muammolarga duch kelgan paytlarim bo'lgan. Shunday kezlarda ko'nglimda fuqarolik olishim kerak, deb o'ylardim. Nihoyatda xursandman, niyatim ushaldi. O'zbekiston fuqarosi bo'ldim.

Ha, qancha qalblarga fuqarolik olish bilan kirib borayotgan xurramlik so'nggi yillarda mamlakatimizda inson manfaatlari, uning qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganining yorqin isbotidir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bo'lim tomonidan xorijiy davlatlar fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning mamlakatimizda bo'lish qoidalariga rioya etishlarini nazorat qilishda boshqa huquqni



muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Kerakli vaziyatda belgilangan qonun doirasidan chetga chiqish holatlariga huquqiy baho berilayotir.

– Joriy yilning o'tgan davri ichida respublikamizda joriy etilgan tartib-qoidalarga rioya qilmaganlik holatlari bo'yicha 314 ta ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib, 1 nafar shaxs mamlakatimiz hududidan chiqarib yuborildi, – deydi tuman IIOFMB M va FRB boshlig'i, katta leytenant Sa'dulla Azimov. – Shuningdek, 13383 nafar fuqaro doimiy ro'yxatga olindi. O'qish, ishlash, davolanish hamda mehmon sifatida kelgan 8743 nafar fuqaro vaqtinchalik ro'yxatga qo'yildi.

Sirasini aytganda, bo'lim xodimlari o'z vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishmoqda. Bundan turli masalalarda murojaat etayotganlar mamnun bo'lishyapti.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



Mahalla tinch – yurt tinch

O'ZBEKISTON ICHIDAGI
«O'ZBEKISTON»

Kapitan Mehriddin Bahronov xizmat qilayotgan «O'zbekiston» mahallasi Navoiy shahrining markazida joylashgan. Hududda qariyb 8 ming nafar aholi istiqomat qiladi. Islom Karimov shoh ko'chasiga tutashgan mazkur mahallada yirik savdo markazlari, ko'ngilochar maskanlar, ta'lim muassasalari, sport majmuasi, istirohat bog'i joylashgan.



Navoiy shahar IIB JXX HPB profilaktika inspektori, kapitan Mehriddin Bahronov asli qiziltepalik. Oliy ta'lim muassasini yakunlagach, mehnat faoliyatini o'qituvchilikdan boshladi. Profilaktika inspektori sifatida jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, nizoli oilalar bilan ishlash, muammoli vaziyatlarda masalani ijobiy hal etishda unga pedagogik tajribasi qo'l kelyapti.

Lavhamiz qahramoni har kuni mahalla ko'chalarini aylanadi. Tadbirkorlar bilan muloqot qiladi. Ijarada turadigan yoshlar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazadi. Shu asnoda ularning yashash sharoitini o'rganadi, muammolarini, ishini, o'qishini surishtiradi. Ta'lim muassasalarida o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan bo'lib o'tadigan uchrashuvlarda ham faol qatnashadi.

Hayotda ba'zan arzimagan e'tiborsizlik yoki loqaydlik ham turli ko'ngilsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun inspektor hech bir vaziyatni nazoratdan chetda qoldirmaslikka harakat qiladi.

– Jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini barvaqt olish bo'yicha sa'y-harakatlarimiz o'z samarasini beryapti. Jinoyatchilik nisbatan kamaydi. Ammo hudud osoyishtaligi haqida gap borar ekan, jinoyatchilikning tub ildizigacha yetib borishimiz kerak. Shu maqsadda huquqbuzarliklarning sabablarini fuqarolar bilan birga tahlil etyapmiz, – deydi kapitan Mehriddin Bahronov. – Aholining quvonch-u tashvishiga sherik bo'lishga harakat qilyapman. Shundagina odamlar menga ishonib, muammolarini aytishadi, biror ishni boshlayotganda yo'l-yo'riq, maslahat so'rashadi. Shuning uchun huquqiy sohada ham bilimlarimni muntazam oshirib boryapman.

Darhaqiqat, profilaktika inspektori, davlatimiz rahbarining ta'biri bilan aytganda, mahallaning ichki ishlar organidagi vakilidir. Kapitan Mehriddin Bahronov buni doimo yodda tutadi, shunday nomga munosib bo'lishga intiladi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

Урок духовности и просвещения

ДУХОВНАЯ ЗРЕЛОСТЬ – ОСНОВА СЛУЖЕБНОЙ ДИСЦИПЛИНЫ И ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Эти слова особенно созвучны службе, где каждый день требует выдержки, честности, внутренней собранности и уважения к долгу. Быть сотрудником органов внутренних дел – значит не только выполнять задачи, но и сохранять высокие нравственные ориентиры, которые формируют доверие общества.



том духовно-просветительской работы. Сотрудники посещают исторические места, мемориалы, комплексы, связанные с культурным наследием страны. Такие поездки помогают глубже понять историю, осмыслить ценности, которыми живет народ, укрепить чувство патриотизма. Знакомство с духовными центрами и местами силы усиливает связь с культурой, помогает осознать значимость служения обществу.

Кроме того, проводятся тематические беседы, круглые столы, культурные программы

тивах проводятся литературные вечера, обсуждаются книги о службе, патриотизме, истории страны. Такое интеллектуальное общение укрепляет духовные ориентиры, помогает сотрудникам развивать мышление и повышать общий культурный уровень.

Не менее важным элементом духовного воспитания становится волонтерская деятельность. Участие в благотворительных акциях, поддержка воспитательных учреждений формируют у личного состава чувство сострадания и человечности, напоминая о высоком смысле служения обществу.

Наконец, значимой сферой духовного роста является забота о психологическом благополучии сотрудников. Проведение

Духовность не возникает сама по себе. Это результат воспитания, образования, профессионального опыта, а также системной работы по укреплению моральных ценностей в коллективе. Человек, обладающий внутренней культурой, умеет контролировать эмоции, признавать ошибки, стремиться к самосовершенствованию. Такие качества неизбежно повышают уровень служебной дисциплины, создают атмосферу ответственности и взаимного уважения.

Особенность службы состоит в том, что каждый сотрудник является представителем государства. Граждане оценивают не только профессионализм, но и мировоззрение, культуру общения, способность проявлять человечность. Именно духовная зрелость помогает оставаться справедливым и объективным в самых непростых ситуациях, когда требуется одновременно и твердость, и такт.

Важным источником духовного обогащения становятся мероприятия, направленные на укрепление нравственных и моральных ценностей. Они помогают сохранять преемственность поколений, формируют уважение к профессии, усиливают чувство ответственности перед обществом.

Так, в различных подразделениях проводятся встречи формата «трех поколений», где молодые сотрудники, действующие специалисты и ветераны службы обсуждают жизненный и служебный опыт. Подобные встречи позволяют передать традиции честной и добросовестной службы, укрепить связь между поколениями и напомнить молодежи о важности моральной устойчивости.

Большое значение имеет общение с наставниками, которое давно стало частью служебной культуры. Наставник помогает новичку освоиться в профессии, учит служебной этике, поддерживает в трудных ситуациях, делится опытом. Через такие взаимодействия формируются уважение к старшему коллеге, ответственность перед коллективом и понимание истинной сути служебного долга.

Развитие внутреннего туризма также стало мощным инструмен-

и просветительские встречи, посвященные вопросам нравственности, семейных ценностей и культуры общения. Они способствуют формированию уважения, доброжелательности, внимательности – качеств, которые необходимы сотруднику не меньше, чем профессиональные навыки.

Важной частью воспитательной работы является также поддержка семейных ценностей. В подразделениях организуются семейные мероприятия, встречи с семьями сотрудников, программы по формированию здоровой семейной атмосферы. Семья – это опора, которая влияет на психологическое состояние человека и его способность сохранять внутреннее равновесие в напряженных условиях службы.

Особое внимание уделяется формированию культуры чтения и расширению кругозора сотрудников. Во многих коллек-

тренингов, консультаций, встреч с психологами помогает поддерживать внутреннюю устойчивость, учит управлять эмоциями и предотвращает профессиональное выгорание. Гармония души напрямую связана с качеством службы и соблюдением дисциплины.

В конечном счете духовность становится тем фундаментом, на котором строится вся служебная деятельность. Там, где есть нравственная зрелость, естественным образом укрепляются дисциплина, ответственность, справедливость и преданность своему делу.

Служба, основанная на духовных ценностях, всегда вызывает уважение и доверие. А человек, который стремится к внутреннему совершенствованию, неизбежно становится примером для товарищей по службе и опорой для общества.

Юлия ЧАЙКИНА,
соб. корп.

YAKDILLIK — YUKSAK MARRALAR GAROVI

Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yangiyo'l tumani IIB sohaviy xizmatlar xodimlari tomonidan ana shu ezgu maqsadlar yo'lida izchil chora-tadbirlar olib borilmoqda. Buning samarasi o'laroq, o'tgan o'n oy davomida jami 51 ta mahalladan 12 tasida jinoyat sodir etilmagan. Axborot texnologiyalari sohasida esa 33 ta jinoyat fosh etilgan. Qotillik, firibgarlik, bosqinchilik jinoyatlari sezilarli darajada kamaygan.

ASOSIY QUYI BO'G'IN



Tumandagi 27-sonli huquq-tartibot maskani hududida joriy yilning o'n oyi davomida sodir etilgan va oldi olinishi mumkin bo'lgan jinoyatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 taga kamayishiga erishilgan. Maskanga birlashtirilgan jami 7 ta mahallada 36 ming nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi. Mahallalardan bittasi «yashil», qolganlari «sariq» toifada.

Barcha mahallalarda xizmat faoliyatini olib borayotgan profilaktika inspektorlari mahalla yetiligi bilan yakdillikda aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish hamda ehtiyojmandlarga o'z vakolati doirasida ko'maklashishga bel bog'lashgan.



QAYNOQ JARAYONLAR MARKAZI

Tumanda aholi ko'p to'planadigan joylar, bozorlar, jinoyatlar sodir etilish ehtimoli yuqori bo'lgan maskanlarga videokuzatuv moslamalari o'rnatilgan. Bu jinoyatchilikning oldini olish bilan birga, sodir etilganlarini tezkorlik bilan ochishda qo'l kelmoqda.

Hozirda tuman IIB navbatchilik qismiga kelib tushayotgan sutkalik murojaatlar soni o'rtacha 55–60 tani tashkil etmoqda.

Ichki ishlar organlarida ko'p yillardan buyon xizmat qilib kelayotgan tuman IIB Navbatchilik qismi katta inspektor navbatchisi, podpolkovnik G'ofur Qo'chqorov ustoz sifatida yosh xodimlarga o'z tajribalari bilan bo'lishmoqda.



Abror
POYONOV,
maxsus muxbir.
Abu KENJAYEV,
fotomuxbir.
Toshkent viloyati.

HUQUQLARIMIZ KAFOLATI

Tuman IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi katta surishtiruvchisi, kapitan Rustamjon Yo'ldoshev 2020-yildan shu yerda xizmat qilib kelmoqda.

– Konstitutsiya davlatimizning asosiy bosh qomusi. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi.

Biz ham tergov-suri-

rishtiruv jarayonlarida Bosh qomusimiz asosida yaratilgan barcha huquqiy normativlarga amal qilgan holda, tergov ishlarining har tomonlama xolisligini ta'minlashga hissa qo'shayotganimizdan mamnunmiz, – deydi lavhamiz qahramoni.



MUROJAATLAR E'TIBORDA

Tuman IIB rahbariyati tomonidan aholi murojaatlari bilan ishlash ustuvor vazifalardan biriga aylangan.

– Murojaatlarning aksariyati qabul jarayonining o'zidayoq ijobiy hal etilmoqda. O'rganish talab qilinadigan masalalar ijrosi nazoratga olinmoqda. Shu kunga qadar 15 mingdan ortiq murojaatlar kelib tushgan. Har bir jarayon rahbariyat nazoratida, – deydi tuman IIB Murojaatlar bilan ishlash guruhi katta inspektori, mayor Rustamjon Mirzakarimov.



QO'SHQANOTLAR

ORZULAR SARI



Ichki ishlar organlari safida xizmat olib borayotgan mayorlar – Akromjon Karimov va Zuhra Karimova nafaqat o'z kasblariga sadoqati, balki oilaviy totuvligi bilan ham hamkasblariga o'rnak bo'lib kelmoqda. Ikkalasi ham IIV Akademiyasining 2014-yilgi bitiruvchilari.

– Yoshlikda tanishgan ikki qalbnining xizmat burchi, mushtarak maqsad va Vatanga sadoqati yanada mustahkam bog'ladi, – deydi Akromjon. – Bugun biz hayotda ham, xizmatda ham bir-birimizga suyanch, tayanch bo'lib kelmoqdamiz.

Akromjon Karimov xizmat faoliyatini profilaktika inspektori sifatida boshlab, jinoyat qidiruv xizmatida ham, profilaktika yo'nalishida ham o'zini mas'uliyatli va halol xodim sifatida namoyon qilgan.

Namangan tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori lavozimida ishlab kelayotgan mayor Akromjon Karimov faoliyat yuritayotgan hudud «qizil» toifadan chiqib, «yashil» toifadagi mahallalar qatoriga qo'shildi. Uning tinimsiz mehnati, mahalla aholisi bilan olib borgan samarali muloqoti va profilaktika ishlariga bo'lgan mas'uliyatli yondashuvining natijasi esa joriy yilgi navbatdagi inspektorlik tekshiruv natijasiga ko'ra, «A'lo xizmatlari uchun» ko'krak nishoni bilan taqdirlangani bo'ldi.

Zuhraxon esa bugungi kunda Namangan shahar IIB 1-sonli IIB HPG profilaktika inspektori sifatida faoliyat yuritmoqda. Ta'kidlash joiz-

ki, u kiber va maishiy jinoyatlarning oldini olish, xotin-qizlar muammolari bilan ishlash borasida ham tajribaga ega. «To'maris» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan lavhamiz qahramoni joriy yilda ijtimoiy falsafa fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi.

– Birimizning xizmatdagi muvaffaqiyatimizdan ikkinchimiz ruhiy kuch olamiz, – deydi Zuhraxon. – Oilamizdagi hamjihatlik, bir-birimizni qo'llab-quvvatlashimiz, muammolarni birgalikda hal qilishimiz bizning samarali ishlashimizga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Har bir inson o'z fidoyiligi bilan yurtidagi ezguliklarga hissa qo'shadi. Aytish kerakki, Karimovlar oiladagi qadriyatlarga ham juda katta e'tibor qaratishadi. Ikki farzandni tarbiyalab, ularning hayotga munosabatini to'g'ri shakllantirishga intilishyapti.

Orzular sari intilishdan to'xtamaydigan bu oilaning har bir qadamida mehnat va fidoyilik o'z aksini topmoqda.

Jahongir TO'XTASINOV, o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

YO'L BOSHIDA

TO'G'RI YO'L – O'QISHDA, O'RGANISHDA

Yangiyer shahar IIB voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha katta inspektori, kapitan O'rolbek Niyozov el-yurt osoyishtaligi yo'lidagi xizmat faoliyatini boshlaganiga 5 yil bo'ldi. Ayni paytda shaharda istiqomat qilayotgan o'n ming nafardan ortiq voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ular kelgusida komil insonlar bo'lib yetishishi uchun astoydil harakat qilmoqda.

U har kuni ishni umumta'lim maktablaridan boshlaydi. Yangiyerda 12 ta maktab bo'lib, ularda 8400 dan ortiq o'quvchi tahsil oladi. Umumta'lim muassasalari mutasaddilari bilan davomatni tekshiradi. Dars jarayonlariga xalaqit bermasdan jarayonni kuzatadi. Davomat to'g'risidagi ma'lumotlarni olgach, darslarga muntazam kelmayotgan o'quvchilarning oilaviy ahvolini, muammolarini o'rganadi, ularning ota-onalari bilan suhbatlashadi. Bu esa o'z navbatida yaxshi samara bermoqda.

Lavhamiz qahramoni baxtli oila sohibi. Turmush o'rtog'i umumta'lim maktabida psixolog vazifasida faoliyat ko'rsatadi. Ular ikki farzandni tarbiyalashmoqda.

U mahallalardagi yoshlar masalalari bo'yicha yetakchilar bilan birga oilaviy ahvoli og'ir oilalarda bo'lib, ularning farzandlari bilan bog'liq muammolarni o'rganib, yordam berish choralarini ko'radi. Jumladan, sohil bo'yidagi mahalla xonadonlaridan birida yashovchi

Yangiyer chorrahada joylashgan shahar bo'lgani tufayli ba'zan bu yerga oilasidan chiqib ketgan voyaga yetmaganlar ham kelib qoladi. Bunday bolalar shahardagi istirohat bog'ida, dehqon bozorida, sohil bo'yidagi xiyobonlarda maqsadsiz yurgani to'g'risida xabar kelib tushishi bilanoq O'rolbek Niyozov o'sha yerga yo'l oladi.

– Yaqinda uydagilarni ogohlantirmasdan yo'lga chiqib, shahrimizga kelib qolgan farg'onalik 14 yoshli bolani o'z uyiga qaytardik, – deydi lavhamiz qahramoni. – Suhbat jarayonida u mustaqil yashay olishini uydagilariga isbotlamoqchi bo'lganini aytdi. Bolani Guliston shahridagi Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy qo'llab-quvvatlash markaziga joylashtirdik. Oradan ikki kun o'tgach, uni ota-onasi olib ketdi. Qo'ng'iroq qilib, menga minnatdorlik bildirishdi.

Afsuski, yangiyerlik o'smirlar orasidan ham mana shunday tarzda uyidan chiqib ketish holatlari uchrab turadi. Yaqinda maktabning 10-sinf o'quvchisi bo'lgan



10-sinf o'quvchisi bo'lgan qiz uch kun maktabga bormagan. U nogiron onasi bilan yolg'iz yashaydi. Oldingi safar kelganida qizni kiyim-kechak bilan ta'minlashda muammolar borligi aniqlangandi. Kapitan mahalla raisi bilan bamaslahat homiy topdi. U bugun homiy tomonidan tuhfa qilingan kiyimlarni o'quvchi qizga taqdim etdi.

o'smir yigit Toshkent shahriga qochib ketadi. Surishtiruvlar natijasida u Qibraydagi avtomobillarni yuvish shoxobchasida ishlayotganini aniqlandi. Uch kun o'tmasdan O'rol Niyozov o'smirni o'sha yerdan topdi va ota-onasi qo'liga sog'-omon topshirdi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV, o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ВА ЭРКИНЛИКЛАРИ КАФОЛАТИ

Ҳар қандай демократик давлатда инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлашга бўлган эътибор давлат сиёсатининг устувор йўналиши ҳисобланади. Янги Ўзбекистонда ҳам умумэътироф этилган халқаро ҳужжатларнинг устунлигини тан олиб, бевосита инсон ҳуқуқларига оид миллий қонунчилик нормаларини қабул қилмоқда ва такомиллаштирмоқда.

Инсон ҳуқуқлари тизимида сиёсий ҳуқуқлар муҳим ўрин тутади. Ўзбекистон Республикаси фуқаролари жамият ва давлат ишларини бошқаришда бевосита ҳамда ўз вакиллари орқали иштирок этиш ҳуқуқига эгадир. Конституциянинг 39-моддасида эса фуқароларнинг касба уюшмалари, сиёсий партиялар ва бошқа жамоат бирлашмаларига уюшиш, оммавий ҳаракатларда иштирок этиш ҳуқуқи белгиланган. Мазкур моддада қайд этилишича, сиёсий партиялар, жамоат бирлашмаларида, оммавий ҳаракатларда, шунингдек, давлат ҳокимияти вакиллик органларида озчиликни ташкил этувчи муҳолифатчи шахсларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қадр-қимматини ҳеч ким камситиши мумкин эмас.

Конституциянинг муҳим жиҳатларидан яна бири фуқароларга берилган ижтимоий ҳуқуқларнинг қонуний мустаҳкамланганлигидир. Асосий қонунимизнинг 46-моддасида «Ҳар ким қариганида, меҳнат қобилиятини йўқотганда, ишсизликда, шунингдек боқувчисини йўқотганда ва қонунда назарда тутилган бошқа ҳолларда ижтимоий таъминот олиш ҳуқуқига эга», деб белгилаб қўйилган.

Бош қомусимизда қонуний мустаҳкамлаб қўйилган муҳим ма-

салалардан бири фуқароларнинг иқтисодий, ижтимоий, маданий ва экологик ҳуқуқларини самарали муҳофаза этиш масаласидир. Бозор иқтисодиётининг ҳуқуқий заминини яратиш манфаатларидан келиб чиқиб, ҳар бир шахс мулкдор бўлишга ҳақли, шунингдек, мерос ҳуқуқи қонун билан кафолатланади (41-модда). Ҳар ким муносиб меҳнат қилиш, касб ва фаолият турини эркин танлаш, хавфсизлик ва гигиена талабларига жавоб берадиган қулай меҳнат шароитларида ишлаш, меҳнати учун ҳақ олиш, шунингдек, ишсизликдан қонунда

белгиланган тартибда ҳимояланиш ҳуқуқига эга (42-модда).

Конституциянинг 43-моддасига асосан, давлат фуқароларнинг бандлигини таъминлаш, уларни ишсизликдан ҳимоя қилиш, шунингдек, камбағалликни қисқартириш чораларини кўради.

Асосий қонунимизда билим олиш, фан-техника тараққиёти масалаларига алоҳида эътибор берилиб: «Ҳар ким таълим олиш ҳуқуқига эга. Давлат узлуксиз таълим тизими, унинг ҳар хил турлари ва шакллари, давлат ва нодавлат таълим ташкилотлари ривожла-



Абдуғафур САТТАПОВ,
юримик фанлар доктори,
профессор.

нишини таъминлайди. Мактабгача таълим ва тарбия, умумий ўрта таълим давлат назоратидадир», дейилган.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси халқнинг маънавий-маданий мероси миллий тафаккур, муқаддас исломий қадриятлар ва кўп асрлик ўзбек давлатчилиги тажрибаси ҳамда ҳуқуқий анъаналарга асосланган бўлиб, уларнинг бой ижобий тажрибасини ўзида акс эттирган. Асосий қонунимизнинг муқаддимасидан охириги моддасигача мустақиллик, демократия, инсон ҳуқуқлари ва Ватан равнақи ғоялари тараннум этилган.

Хулоса қилиб айтганда, ҳар бир шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, ҳуқуқий демократик давлат ҳамда фуқаролик жамиятини шакллантириш мамлакатимиз Конституциясининг асосий мақсадидир.

Ҳар ким қулай атроф-муҳитга, унинг ҳолати тўғрисидаги ишончли ахборотга эга бўлиш ҳуқуқига эга.

Давлат фуқароларнинг экологик ҳуқуқларини таъминлаш ва атроф-муҳитга зарарли таъсир кўрсатилишига йўл қўймалик мақсадида шахарсозлик фаолияти соҳасида жамоатчилик назоратини амалга ошириш учун шарт-шароитлар яратади.

Шахарсозлик ҳужжатларининг лойиҳалари қонунда белгиланган тартибда жамоатчилик муҳокамасидан ўтказилади.

Давлат барқарор ривожланиш принципага мувофиқ, атроф-муҳитни яхшилаш, тиклаш ва муҳофаза қилиш, экологик мувозанатни сақлаш бўйича чора-тадбирларни амалга оширади.

Давлат Оролбўйи минтақасининг экологик тизимини муҳофаза қилиш ҳамда тиклаш, минтақани ижтимоий ва иқтисодий жиҳатдан ривожлантириш юзасидан чоралар кўради.

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, 49-модда.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI



Nukus shahrida o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish maqsadida yaqinda O'zbekiston Respublikasi IIVning Qoraqalpog'istondagi Mintaqaviy o'quv markazida tadbir tashkil etildi.

Ochiq eshiklar kunida Nukus shahridagi 22-sonli maktab o'quvchilari markazdagi o'quv jarayoni bilan tanishib, qo'riqlash xizmatining afzalliklari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishdi. Ular uchun ot sporti bo'yicha ko'rgazmali mashg'ulot tashkil etildi.

Shuningdek, o'quv markazining bo'linma boshlig'i, mayor R.Tileumuratov «Yoshlarning erkin fikr yuritishida yuzaga keladigan muammolar» mavzusida psixologik trening o'tkazdi. O'quvchilar tadbirdan bir olam taassurot olishdi.

Allamurat XOJANAZAROV,
kapitan.

■ Самаркандская область

КОГДА КРИМИНАЛИСТИКА ВСТРЕЧАЕТ ПОЭЗИЮ

В Самарканде прошел отбор кандидатов на соискание Государственной премии имени Зульфии. В этом году 930 девушек региона подали заявки на участие, и лишь 131 прошли в областной этап. Среди талантливых претенденток – эксперт ЭКО УКД ОВД города Самарканда лейтенант Маржона Мансурова, за плечами у которой уже немало достижений.

Маржона родом из Пайарыкского района. С отличием окончив общеобразовательную школу, поступила в Академию МВД. В этом году начала службу экспертом ЭКО УКД ОВД г. Самарканда.

Она активно участвует в интеллектуальных играх «Заковат». Такой многогранный подход делает ее не только ценным специалистом, но и интересной личностью с широким кругом интересов.

Одним из значимых достижений лейтенанта стало участие в престижном конкурсе научных статей, организованном центром науки и знаний Scientific Academy в рамках СНГ. По итогам конкурса Маржона была удостоена специальной статуэтки и диплома.

– Начав путь криминалиста, я получила первый опыт расследований, – вспоминает Маржона. – С наставниками мне повезло: они помогли адаптироваться. Первые дни



службы стали для меня настоящим водоворотом оперативных задач. Осмотры мест преступлений, работа с вещественными

доказательствами, участие в следственных экспериментах – все это требует предельной концентрации и умения быстро

усваивать практику. Лекции и учебники остались в прошлом.

Лейтенант Мансурова демонстрирует не только хорошую теоретическую подготовку, но и способность быстро обучаться, находить нестандартные решения.

За пределами службы Маржона раскрывается по-другому. В свободное время она пишет стихи. В ее первом сборнике «Орзулар канотида» («На крыльях мечты») отражены темы любви, надежды, потерь и одиночества – все то, что составляет внутренний мир молодой поэтессы. Произведения отличаются лиричностью, искренностью и оригинальным взглядом на окружающее.

Сочетание аналитического мышления, творческого подхода и любви к интеллектуальным вызовам делает Маржону Мансурову яркой, самобытной личностью, способной достигать успеха в самых разных направлениях. Ее пример вдохновляет окружающих на стремление к знаниям, развитию и уверенное движение вперед.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

■ Наманганская область

НА СТРАЖЕ БЕЗОПАСНОСТИ

В Кинологическом подразделении Управления обеспечения общественного порядка УВД области содержатся 47 породистых служебных собак. Из них 43 прошли специальную подготовку и работают по разным направлениям. Среди них есть четвероногие помощники, специализирующиеся на поиске взрывчатых веществ, выявлении наркотических средств, розыскной деятельности, охране и племенного направления. Они стали эффективным средством обеспечения общественной безопасности.

За 10 месяцев текущего года кинологи вместе со своими питомцами 822 раза выезжали на места происшествий и приняли участие в

раскрытии 212 преступлений. Из них 153 кражи и 54 преступления, связанных с наркотическими средствами. В ходе работы у правонарушителей



было обнаружено 2289 грамма наркотических веществ и 118 растений, содержащих наркотические средства. Это способствует сохранению жизни и благополучия многих семей и членов общества.

Кинологи участвуют не только в раскрытии преступлений, но и постоянно обеспечивают безопасность на массовых мероприятиях в области. На постах дорожно-патрульной службы в Папском, Нарынском и Янгикурганском районах

служебные собаки несут круглосуточное дежурство. За истекший период на этих постах они 14 раз помогли пресечь попытки провоза наркотических веществ.

Кинологическое подразделение – важное и ответственное звено в борьбе с преступностью, обеспечении общественной безопасности.

Жасур БЕКМИРЗАЕВ,
капитан.
Шахзод АМИНЖОНОВ,
лейтенант.

USTOZ-SHOGIRD

– Sabinaxon topqir, zuko va izlanuvchan xodima. U har bir jinoyatning sabablarini, oqibatlarini sinchiklab o'rganadi, guvohlar bilan erinmasdan suhbatlashadi. Shu sababdan bo'lsa kerak, yosh bo'lishiga qaramasdan, hamkasblari o'rtasida hurmat qozongan, – deydi mayor Sardor Jamilov.

Asli jondorlik M.Begim (ismlar o'zgartirildi) ayollik sha'niga dog' tushirib, hali qirq yoshga kirmay muqaddam bir necha marotaba sudlandi. Oxirgi marta 2022-yil Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat sodir qilganlikda ayblanib, 4 yil-u 6 oy muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan edi. Ammo bundan xulosa chiqarmay, yana qasddan jinoyat sodir qiladi. U Buxoro shahrida ijarama-ijara yashab, qo'shmachilik qiladi. Bundan xabar topgan osoyishtalik posbonlari tezkor tadbirni amalga oshiradi. Katta leytenant Sabina Kamolova tergovchi sifatida tadbirga jalb qilinadi.

– M. Begim xavfli retsiv bo'la turib, moddiy manfaatdor bo'lish maqsadida tanishi B. Marziyani «birga ishlashga» ko'ndiradi. Ya'ni, mijozni biri topsa, ikkinchisi ko'nglini ovlaydi, – deydi katta leytenant S. Kamolova. – Tergov jarayonida M. Begim barcha

INTILGANGA TOLE YOR

Katta leytenant Sabina Kamolova IIV Akademiyasini tugatgach, Buxoro shahar IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limi tergovchisi lavozimida xizmatni boshladi. Unga tajribali katta tergovchi, mayor Sardor Jamilov murabbiy etib birlashtirildi. Ustozidan sohaning sir-asrorlarini puxta o'rgandi.



aybni tanishiga ag'dardi, u yigitni olib keldi va mendan xona so'radi, deb ko'rsatuv berdi. Ammo holat aksincha bo'lganini isbotlash kerak edi. Ustozimdan yo'l-yo'riq olib, asl holatni tikladim.

Sabina ichki ishlar organlarida xizmat qilib kelayotgan xolasi – ayni paytda Buxoro tumani IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor – podpolkovnik Luiza Muhsinovaday bo'lish-

ni orzu qilardi. Shu maqsadda o'quvchilik davrida qo'shimcha fan va sport to'garaklariga qatnashib, bilimni boyitdi, jismonan chiniqdi. Avval IIV Buxoro akademik litseyida, so'ngra IIV Akademiyasida tahsil oldi. O'qish davrida «Ichki ishlar vaziri stipendiati» sohibasi bo'ldi. «Ta'lim iftixori» hamda «Akademiya a'lochisi» ko'krak nishonlarini olishga musharraf bo'ldi. Bundan tashqari, o'qishdan bo'sh

vaqtlari Sharq tillariga, ayniqsa, arab tiliga qiziqishi kuchli bo'lganligi sababli, bir necha yil davomida uni o'rganishga harakat qildi va hozirgi kunda turk, arab, fransuz tillaridan xalqaro sertifikatga ega bo'lgan. Eng asosiysi, IIV Akademiyasini muddatidan oldin «katta leytenant» maxsus unvoni va imtiyozli diplom bilan tugatdi.

Tergovchiga qo'yiladigan asosiy talablar haqida

so'raganimizda, lavhamiz qahramoni shunday javob berdi:

– Qonunlarni chuqur, atroflicha bilish hamda ularga rioya etishi, har bir jinoyat ishining orqasida inson taqdiri turganini yodda tutishi, sabr-toqatli bo'lish va shoshmashosharlik bilan qaror chiqarmaslik kerak. Chunki bular hech qachon ijobiy natija bermaydi. Qayerdagi adolat g'alaba qilsa, qonundan chekinish yuz bermaydi. Doimiy ravishda o'z ustida muntazam ishlagan tergovchi hech qachon kam bo'lmaydi.

Katta leytenant S. Kamolova gumon qilinuvchilar bilan suhbatlashish vaqtida ularning bunday xatti-harakatni sodir etishiga olib keluvchi sabablarni tushunishga intiladi. Har bir ishni tergov qilib tugatganidan keyin nima uchun aybdor qonunni buzib, jinoyat sodir etgani ustida o'ylaydi. Shundan so'ng profilaktika inspektori, mahalla faollari, aholi bilan uchrashadi. Ular bilan suhbatlashish jarayonida yuz bergan jinoyatning kelib chiqish sabablarini muhokama qilishadi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

O'QISHNI TAVSIYA ETAMAN

MOZIYDAN SABOQ

Tarix – ulug' murabbiy! Ne-ne buyuk zotlar, avliyo-yu anbiyolar, olim-u ulamolar ilm-u urfonni undan o'rgangan. Insoniyatga murabbiylik qilgan tarix silsilasida qanchadan-qancha saltanatlar bo'lmagan deysiz. O'tmishda o'z yurtida o'ziga xos mavqega, nufuzga ega bo'lgan shaxslar yashab o'tgan. Ular tomonidan amalga oshirilgan ulug'vor ishlar hali-hanuz avlodlar tomonidan o'rganilib kelinadi.

Atoqli yozuvchi Pirimqul Qodirovning «Ona lochin vidosi» romani tarixiy-memuar asar hisoblanadi. Romanda XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyoda sodir bo'lgan voqealar – Shohruh Mirzo umrining so'nggi damlari, Mirzo Ulug'bek hayotining tahlikali kunlari, halokati, Abusaid saltanati yillari, nihoyat Husayn Boyqaroning hokimiyat tepasiga kelishi voqealari qalamga olinadi.

Asarda Movarounnahr va Xurosondagi ma'naviy muhit, madaniy hayot, toj-u taxt va saltanat muammolari, ta'lim-tarbiya jarayonlari adib tomonidan mohirona tasvirlab berilgan. Shohruh Mirzoning rafiqasi, Mirzo Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim romanning

bosh qahramoni sifatida tanlangan. Bu mehridaryo onaxonning saltanatni saqlab qolish yo'lidagi jonbozliklari, fidoyiliklari bilan tanishib, unga tasannolar aytasiz.

Qahramonning ona lochin deb atalishi bejiz emas. Kitobni o'qish jarayonida uning Temuriylar saltanatida yorqin iz qoldirgan, ma'naviy dunyosi boy, aql-u zakovatda eng peshqadam ayollaridan biri bo'lganligiga amin bo'lasiz. Malikaning nabiralari Abdullatif va Alouddavla o'rtasidagi raqobat Gavharshodbegimni ancha tashvishga soladi. Ammo malika o'zining donolarcha nigohi, aql-u tafakkuri, sabr-matonati bilan amirzodalarga to'g'ri yo'l ko'rsatishga harakat qiladi.

Kezi kelganda qattiqqo'l, qalbi toza va mehribon Gavharshodbegimning temuriyzodalarni tarbiyalashi, nodir iste'dodlarni kashf etishi, amirzodalarni mehr-muruvat bilan onalarcha parvarishlashi, ayniqsa, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy bilan bo'lgan munosabatlarida yorqin gavdalantirilgan. Gavharshodbegimning shijoati, donishmandligi, iztiroblarga to'la o'ylari, dil rozlari bilan tanishganda, millatimiz tarixida ana shunday tabarruk onaxonlarimiz o'tganidan ko'nglimiz tog'dek ko'tariladi.

Bir so'z bilan aytganda, asar turli-tuman qiziqarli, dramatik va tarixiy voqealarga boy. Yozuvchi o'sha davr ruhini mohirlik bilan



ochib bergan. Barcha badiiy adabiyot ixlosmandlariga tarixiy, tarbiyaviy ruhda yozilgan ushbu romanni mutolaa qilishni tavsiya etaman.

Ubaydulla QO'CHQOROV,
Samarqand viloyati IIB XTTB
JTSG inspektori, kapitan.



MAHALLA TINCH – YURT TINCH

YETILIK A'ZOLARI YELKADOSH, HAMMASLAK

Mahalla barchamiz uchun qadrli va qardon maskan. Uning obodligi, fayzli-tarovatli ko'chalarida esa dillarga g'urur bag'ishlaydi. Paxtachi tumani Mirzo Nodim nomidagi mahallasi «yashil» toifada. Bu yerda odamlarning yashash sharoitlari kundan-kunga yaxshilanyapti, farovonligi ortmoqda. Mahalla ahli dehqonchilik bobida mirishkor.

Navoiy viloyati bilan chegaradosh mazkur mahalladagi 746 ta xonadonda 3664 nafar aholi istiqomat qiladi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan hayotbaxsh islohotlar chekka va olis mahallalar hamda qishloqlarni ham obod va ko'rkam hududlarga aylantirdi. Buni Mirzo Nodim mahallasi misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

– Hech birimizning hayotimizni, oilalarimizdagi ma'naviy muhit va farzandlar tarbiyasini mahalladan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi, – deydi shu mahallada yashovchi Abdurasul Kunuzoqov. – Aholi farovonligi uchun olib borilayotgan obodonchilik, bunyodkorlik ishlari ko'nglimizni ko'tarib, yangi maqsad, tashabbuslarga undayapti.

Mahalla yetiligi tom ma'noda fuqarolarning deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishda, ularga qulay shart-sharoit yaratishda muhim tizimga aylandi. Ka-



pitan Sardor Temirov mazkur mahallada profilaktika inspektori sifatida xizmat olib boradi, mahalla yetiligining boshqa a'zolari bilan yelkadosh, hammaslak.

Profilaktika inspektori o'ldiga qo'yilgan talab aniq – jinoyatchilikning oldini olib, mahalla tinch-osoyishta bo'lishini, aholi xotirjam, bexavotir yashashini ta'minlash. Ana shu ezgu maqsadni diliga tukkan Sardor Temirov zimmasidagi vazifalarini sidqidildan ado etayapti. U

mahalla yoshlarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari uyushtiryapti. Shu tariqa ular o'rtasida birdamlik, jamiyatga daxldorlik va vatanparvarlik hislarini kuchaytirishga erishmoqda.

Mahalla raisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, hokim yordamchisi bilan birgalikda aholining muammolariga xususan, notinch oilalardagi muhitni sog'lomlashtirishga alohida

e'tibor qaratilyapti. Shuningdek, huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish choralari ko'riyapti.

– Mahalla bunyodkorlikka yuz tutmoqda. Ko'chalarimiz ravon, elektr ta'minotini yaxshilash uchun yangi transformator o'rnatilgan, simyog'ochlar yangilangan. Har bir xonadonda issiqxona bor. Odamlarimiz ro'zg'origa baraka kiritish uchun mehat qilishmoqda. Mahalladoshlarimizning ruhi

tetik, kayfiyati ko'tarinki. Uylarda bolalarning sho'x-shodon kulgusi yangrab turibdi. Bularning barchasi tinchlik-osoyishtalikdan, turmush farovonligidan, – deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Dilshod Xudoynazarov.

Ilgari A.F. ichkilikka ruju qo'ygan edi. U bilan profilaktik suhbatlar o'tkazilgach, sog'lom turmush tarziga amal qilmoqda. Boquvchisini yo'qotgan Laylo Mirzayevaning holidan xabar olinib, uning oilasi moddiy-ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda. Aksar jinoyatlar bekorchilikdan kelib chiqadi. Shu sababli aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash choralari ko'riyapti.

Eng muhimi, odamlar qalbida, ruhiyatida ijobiy o'zgarishlar yuz beryapti. Ular kelajakka ishonch bilan qarashmoqda, mahalladagi bunyodkorlik ishlarida ishtirok etishyapti. Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, hududda amalga oshirilayotgan xayrli ishlar aholi manfaatlariga xizmat qilayotir.

**Umida
MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.**

Samarqand viloyati.

MUQADDAS QADAMJOLAR

SO'FI OLLOYOR ZIYORATGOHI

Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanidagi Vaxshivor tog' tizmalari orasida joylashgan So'fi Olloyor ziyoratgohi tasavvuf ilmining bilimdoni, mutasavvuf shoir So'fi Olloyor nomi bilan bog'liq.

So'fi Olloyor 1644-yilda Kattaqo'rg'onning Minglar qishlog'ida tug'ilib, 1724-yilda Oltinsoy tumanidagi Vaxshivor qishlog'ida vafot etgan. Buxorodagi jo'ybor shayxlari dargohida ta'lim olgan, arab va fors tillarini o'rgangan. Buxoro xoni Abdulazizxon tomonidan boj mahkamasiga to'ra etib tayinlangan. Darveshona fe'l, shoirona ko'ngil sohibi bo'lgan So'fi Olloyor bu lavozimdan tezda iste'fo berib, o'z davrining mashhur shayxi Navro'zga shogird tushgan, tariqat talablarini bajarib, shayxlik martabasiga ko'tarilgan, valiulloh (karomat sohibi) bo'lib yetishgan.



Olimning «Maslak ul-muttalqiyn» («Taqvodorlar maslagi») asari forsiyda nazm yo'li bilan bitilgan, «Murod ul-orifin» («Oriflar-donolar murodi») asari esa tasav-

vuf masalasiga bag'ishlangan. «Maxsan ul-mute'in» («Mute'lar xazinasi») asari arab tilidagi fiqhga oid asar bo'lsa, «Sabot ul-ojizin» («Ojizlar saboti») turkiy-

da yozilgan. Buyuk ajdodimizdan, shuningdek, «Qiyomatnoma», «Muborak haj safari» kabi asar va pandnoma ruhidagi she'rlar ham meros bo'lib qolgan.

So'fi Olloyor 1713-yilda Vaxshivor qishlog'ida masjid qurdiradi. Masjid xonaqoh, ikki tomonlama ayvon hamda qo'shimcha xonalardan iborat bo'lgan. Devori sinchli paxsadan, tomi to'sinli. Xonaqohdagi mehrob ravog'i ancha chuqur bo'lib, unga bo'rtma chiziqlar qilingan. Ayvondagi va xonaqohdagi ustunlar o'yma rangli naqshlar bilan bezatilgan. Ustun va deraza panjaralari qayta ta'mirlangan.

Majmua hovlisida So'fi Olloyor davrida ekilgan tut daraxti hamon ko'karib turibdi. Ziyoratgohdagi Qorabuloq suv havzasi 300 yildan buyon aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlab kelmoqda.

**Feruz RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.**

Сырдарьинская область

ШАГ К НОВОЙ ЖИЗНИ

Выходя из здания суда, старший инспектор группы пробации Баяутского РОВД капитан Акбар Йулжураев почувствовал облегчение. Одиннадцать лиц, находящихся под его надзором, были условно-досрочно освобождены от наказания. Этому предшествовала длительная и кропотливая работа: ежедневный контроль, десятки профилактических мероприятий, постоянный поиск рабочих мест для поднадзорных.

Капитан Акбар Йулжураев начал службу в 2005 году на должности старшего инженера по связи и специальной технике отдела ППС УВД области. С первых лет службы он неоднократно убеждался, что обеспечение общественного порядка требует полной самоотдачи: нередко приходилось оставаться на рабочем месте до поздней ночи, дежурить в многолюдных местах – на вокзале и дехканском базаре, где чаще всего фиксировались случаи хулиганства и краж.

В 2012 году Акбар Йулжураев был переведен на должность инспектора Инспекции исполнения наказаний Акалтынского РОВД. С 2024 года он – старший инспектор группы пробации Баяутского РОВД. Сегодня под пробационным надзором находятся 342 человека. Каждое утро после построения капитан приступает к проверке соблюдения назначенных мер. Баяут – один из крупных районов области, и нередко после объезда отдаленных ма-



халлей сотрудник возвращается лишь к полудню.

В очередной рабочий день капитан направился в махаллю Корапчи, прилегающую к городу Гулистану. Здесь проживают более десяти лиц, поднадзорных. Чтобы трудоустроить четверых из них, инспектор направил ряд обращений в организации и предприятия города. Несколь-

ко производственных объектов выразили готовность принять поднадзорных на работу. Весь день Акбар занимался сопровождением этих граждан: доставлял их на предприятия, содействовал оформлению документов. Завершая день, он ощущал удовлетворение от того, что поспособствовал позитивным изменениям в судьбах четырех людей, а значит

– укреплению благополучия их семей. Главное – предотвращено совершение повторных преступлений.

Однако не всегда удается наставить человека на путь исправления. За последние десять месяцев в отношении 28 поднадзорных меры наказания были ужесточены, половина из них возвращена в исправительные учреждения. Один из таких случаев связан с молодым жителем махалли Жулангар, не достигшим тридцатилетнего возраста. Он был осужден за мошенничество и отбывал наказание в виде ограничения свободы и исправительных работ. Несмотря на неоднократные предупреждения, гражданин систематически нарушал установленные требования: пропускал работу без уважительных причин, однажды явился в состоянии алкогольного опьянения, грубо нарушив условия ограничения свободы. В итоге мера наказания была заменена на лишение свободы.

За годы службы капитан Акбар Йулжураев заслужил уважение граждан своим внимательным и доброжелательным отношением к людям. Нет сомнений, что капитан и впредь будет находиться в передовых рядах тех, кто направляет поднадзорных на путь исправления и укрепляет правопорядок в обществе.

Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.

★ В академических лицеях МВД

На мероприятие, проходившее в нашем лицее, были приглашены действующие сотрудницы органов внутренних дел и ветераны, находящиеся на заслуженном отдыхе, майоры в отставке Зумрад Курбонова и Шоира Очилова.

Гости поделились с учащимися лицея своим богатым опытом и знаниями, акцентировали внимание на воспитании молодежи в духе патриотизма, говорили о служебном долге,

ЖЕНСКОЕ ЛИ ЭТО ДЕЛО?

Преемственность поколений в системе внутренних дел является основным принципом, обеспечивающим непрерывность обучения, передачу бесценного и уникального опыта, сохранение высоких моральных и профессиональных стандартов службы.

ответственности, о выполнении сложнейших задач и смелости принимать неординарные решения в разных ситуациях.

Подполковник М. Якубова отметила, что на службе в органах внутренних дел девушкам приходится сталкиваться с разными

трудностями, связанными с профессиональной деятельностью, физической и психологической нагрузкой, высоким риском непредвиденных ситуаций, недоверием со стороны коллег или граждан, сомневающих в их профессионализме.



Ветераны органов внутренних дел З. Курбонова и Ш. Очилова также рассказали об интересных и сложных случаях из собственной практики. Отрадно было слушать как лицеистки ответили на вопрос действующих сотрудников, по какой причине они выбрали данный лицей и решили стать

в будущем защитниками правопорядка. Многие ответили, что хотят защищать права граждан и обеспечивать безопасность в стране. Есть и те, кто решил продолжить семейную династию.

Раъно ХОДЖАЕВА,
преподаватель
Бухарского
академического лицея.



САЛОМАТЛИК САБОҶЛАРИ

ОВҚАТ АЛЛЕРГИЯСИ

Ҳозиргача тиббиётда аллергияни олдиндан айтиб бериш усули йўқ. У исталган нарсага нисбатан пайдо бўлиши мумкин. Масалан, овқатлар, ўсимлик чанги, уй ҳайвонларининг сўлаги ва юнги, ҳашаротлар чақиши, уй чанги ва моғори, маиший техника, пардоз-андоз воситалари — буларнинг исталган бири инсон иммун тизимида ўта тўлқинли реакция келтириб чиқаради. Олимлар айнан қайси механизмлар иммунитетда ушбу сирли кўринишдаги носозликлар келтириб чиқаришини ҳануз аниқлаганлари йўқ. Бундан шундай хулоса чиқадики, дунёда аллергиядан тўлиқ ҳимояланган инсоннинг ўзи йўқ.



Бугунги кунда алергик касалликлар қаторида овқат аллергияси кўп учрамоқда. Бу иммун тизимининг айрим озиқ-овқат маҳсулотларига нисбатан ҳаддан ташқари сезгирлик билан жавоб бериши натижасида юзага келадиган патологик ҳолатидир.

Озиқ-овқат аллергияси катталар ва болаларда маҳсулотлар таркибидаги оқсиллар, баъзан оқсилсимон моддалар – гаптенлар таъсирида вужудга келади. Озиқ-овқат аллергиясида бошқа кишилар учун мутлақо безарар бўлган янги маҳсулотлар кимгадир салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Овқатга аллергия одатда таомлангандан сўнг бир неча дақиқадан икки соатгача вақт оралиғида ривожланади. Аломатлар беморнинг ёши ва иммунитетини ҳолатига боғлиқ.

Асосий аломатлар эса терида тошма тошиши, қичишиш, шиш ёки аксириш тарзида намоён бўлади.

Оғиз бўшлиғида шиллик пардининг шишиши, алергик ринит, яъни бурун битиши, аксириш ва бурундан сув келиши, йўтал, нафас қисиши, кўзларнинг ёшланиши ва қизариши, кўнгил айнаши кузатилиши мумкин. Баъзан бу турдаги аллергия белгиларига қайт қилиш, ич кетиши, қорин соҳасидаги оғриқлар ҳам хос.

Аллергия маҳали тошма эшакеми кўринишида пайдо бўлади. Ушбу ҳолат қаттиқ ўзақли, қизил тусли тошма, шиш ва қичишиш билан кечади. Эмизикли болаларда овқат аллергияси атопик дерматит сабаб қатор қўшимча аломатларга эга. Масалан, тери қуришқоқлиги, боланинг анал

соҳасида эмизгандан кейин кучаядиган қизариш шулар сирасидан.

Баъзи одамларда озиқ-овқат аллергияси бронхиал обструкция, кўкрак қафасидаги сиқилиш, нафас олишнинг қийинлашиши, қон босимининг кескин пасайиши, бош айланиши ёки ҳушни йўқотиш каби ҳаёт учун хавфли аломатлар билан кечиши мумкин.

Маълумотларга кўра, дунё аҳолисининг 1,1 фоизидан 10,8 фоизигача бўлган қисмида овқатга аллергия кузатилади. Маҳсулотлар орасида эса фақат туз ва шакаргина аллергия кўзғатмайди. Қолган ҳар қандай маҳсулот маълум даражада аллергияга сабаб бўлиши мумкин. Айниқса, аллергияга мойиллиги бор кишилар бу ҳолатга алоҳида эътибор

қаратишлари керак. Шу ўринда болаларда озиқ-овқатларга алергик реакциялар кенг тарқалган бўлиб, сигир сути, тухум, соя, балиқ, ер ёнғоқ, ёнғоқлар ва глютен каби алергенлар томонидан чақирилишини таъкидлаш жоиздир.

Аллергиянинг табиий даво усули, аввало, тўғри овқатланишдир. Бемор алерген чақирувчи озиқ-овқат маҳсулотларидан тийилиши ва воз кечиши лозим. Тиббиётда таҳлил жавоблари чиққач, натижаларга кўра, муолажалар белгиланади. Умуман, алергик касалликлар профилактикаси ва уларни даволашда рационал овқатланиш тартиби, соғлом турмуш тарзига риоя этиш муҳим. Иммунитетни мустаҳкамлаш эса аллергия хуружидан ҳимояланишнинг энг самарали усулидир.

РЕВМАТОЛОГИК КАСАЛЛИКЛАР ХАВФИ

Бўғимлар, мушаклар, юрак ва бир қатор ички органларни зарарлайдиган ревматологик касалликлар дастлаб оддий оғриқ билан бошланса ҳам, вақтида даволанмаса, оғир оқибатларга олиб келиши мумкин. Артрит, подагра, артроз, васкулитлар шулар жумласига киради.

Аммо улар орасида энг кенг тарқалгани ва хавфлиларидан бири ревматизм касаллиги бўлиб, кўпинча оддий ангинадан сўнг юзага келади. А гуруҳи гемолитик стрептококк чақирадиган инфекция иммун тизимни издан чиқариб, организмнинг ўз тўқималарига қарши ҳужумига сабаб бўлади. Заиф иммунитет, наслий мойиллик, совқотиш, санитария талабларига амал қилмаслик ва ўтказиб юборилган томоқ оғриғи касаллик ривожланишидаги асосий омиллардир.


Ревматизм касаллиги одатда ўткир тонзиллит, яъни ангинадан 2–3 ҳафта ўтиб бошланади. Аввал катта бўғимларда – тизза, товон ёки тирсақда оғриқ пайдо бўлиб, у бир бўғимдан бошқасига «кўчиб юради». Бўғимлар шишиб, қизиб, ҳаракат



чегараланади. Энг хавфли томони шундаки, касаллик ўз вақтида даволанмаса, 6 ойдан сўнг юракни, юрак клапанларини зарарлаб, ревмокардит ва орттирилган юрак нуқсонларининг ривожланишига олиб келиши мумкин. Нафас қисиши, юрак уришининг тезлашиши, кўкрак оғриғи ва кучли ҳолсизлик кузатилади. Баъзан асаб тизими

ҳам зарарланиб, «кичик хорая» деб аталадиган ихтиёрсиз ҳаракатлар, титроқ, нутқ бузилиши ва ҳиссий беқарорлик кузатилади.

Касалликнинг олдини олишда – организмдаги барча сурункали инфекция ўчоқларини санация қилиш, ангина ва юқори нафас йўли инфекцияларини, тишлардаги кариес-



ларни ўз вақтида даволаш, гигиена қоидаларига амал қилиш, иммунитетни мустаҳкамлаш ва совқудан ҳимояланиш муҳим. Мунтазам равишда кардиолог ва ревматолог кўригидан ўтиш, жисмоний юкламани меъёрлаш қайталаниш хавфини камайтиради.

Реабилитация жараёнида физиотерапия, даволовчи жисмоний машқлар, санаторий муолажалари ва

тўғри овқатланиш муҳим аҳамиятга эга. Ушбу чора-тадбирлар бўғим ҳаракатчанлигини тиклаб, юрак фаолиятини яхшилайдди ва беморнинг кундалик ҳаётга қайтишини енгиллаштиради.

Ревматизмнинг хавфли оқибатларидан сақланишнинг энг яхши йўли – ўз вақтида ташхис, мунтазам даволаш ва пухта профилактика ишларидир.

Саҳифа материалларини Тошкент шаҳар ИИББ Тиббиёт бўлими поликлиникаси шифокорлари Ҳафиза РАҲМОНОВА ҳамда Камола РАҲМОНОВА тайёрлади.

QAROR VA IJRO

IJTIMOIY PROFILAKTIKA — JINOYATCHILIKKA JILOV

Joriy yil boshida Farg'ona viloyati bo'yicha ijtimoiy profilaktika subyekti sifatida 18 ta toifadagi 522 ming 447 nafar shaxsning ro'yxati shakllantirildi va ayni paytda ular bilan manzilli ishlar olib borilmoqda.

– Bejiz ijtimoiy profilaktikaga muhtoj fuqarolar ro'yxatga olinib, ularga jiddiy e'tibor qaratilgani yo'q, – deydi viloyat IIB JXX HPB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Yorqinjon Pirmatov. – Tibbiyotdan shu narsa ma'lumki, kasallikning o'chog'i erta aniqlanib, uning sabablariga qarata davo choralarini ko'rilsa, kasallik tez tuzaladi va butun tana bo'ylab tarqalib ketmaydi. Jamiyat ham inson tanasiga o'xshaydi. Undagi og'riqli masalalar va muammolarga vaqtida e'tibor qaratilsa, u o'z-o'zidan barham topib, jamiyat sog'lomlashadi. Biz ham shu tamoyillarga tayanib, har kuni kamida 3 ta mahallani o'rganishga va ijtimoiy profilaktikaga muhtoj shaxslar bilan «fuqarobay» usulda ish olib borishga harakat qilyapmiz.

Yilning o'tgan davrida «xonadonbay» o'rganishlarda 963 nafar shaxsning ijtimoiy profilaktika yo'nalishi bo'yicha muammolari aniqlanib, ularni hal qilish bo'yicha mahalla yettiligiga xulosa berilgan edi. Na-



tijada 534 nafarining muammolari ijobiy hal etildi.

– Ijtimoiy profilaktika ishlari jinoyatchilikni jilovlashda juda qo'l kelyapti, – deydi Marg'ilon shahridagi Burhoniddin Marg'iloniy nomidagi mahalla profilaktika inspektori, podpolkovnik Amirjon Abdullayev. – Masalan, men ham joriy yilning o'tgan davrida 96 nafar shaxsni

ijtimoiy profilaktika obyekti sifatida aniqlab, ularning muammolarini hal etish uchun mahalla yettiligiga xulosa berdim. Xulosalarim esa mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim

profilaktika inspektorlari va mahalla yettiligi o'rtasida ma'lumotlar onlayn almashilyapti. Yilning o'tgan davrida huquqbuzarlik sodir etish yoki huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli bo'lgan 7275 nafar shaxsga nisbatan xulosa berilgan bo'lsa, ulardan 5319 nafari yoki 73,7 foizi qisqa fursatdoyq ijobiy hal etildi. Bugungi kunda 1956 nafar shaxsga berilgan xulosalar ijro etilmoqda.

Ijtimoiy profilaktika ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilgani, muammolar mahallaning o'zidayoq hal etilishi natijasida avvalgi yillarda «qizil» toifada bo'lgan Farg'ona shahridagi «Bahor», «Ma'rifat», Marg'ilon shahridagi «Zuhro», Toshloq tumanidagi «Toshloq», Furqat nomli, Beshariq tumanidagi «Rapqon», Dang'ara tumanidagi «Yangizamon», Quva tumanidagi «G'alaba», «Go'zal», Oltiariq tumanidagi «Sharq» MFYda ham jinoyatchilik salmog'i kamayib, osoyishtalik nafasi kirib kelyapti.

Joriy yil boshida kriminogen vaziyati og'ir deb qayd etilgan 116 ta mahalladan 84 tasi «qizil» toifadan chiqarildi. Ulardan 44 tasi «sariq» va 60 tasi «yashil» toifaga o'tdi. E'tiborlisi shundaki, viloyatdagi 1015 ta mahallaning 526 tasida birorta ham jinoyat sodir etilmadi.

Abdusot SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

GIYOHVANDLIK – ASR VABOSI

ENG OG'IR DARDLARDAN BIRI

Giyohvandlik insonning osuda hayotiga raxna solib, ongini o'ziga bo'ysundiruvchi zahri qotildir. Bu o'ta og'ir xastalik dunyodagi barcha mamlakatlarda, ayniqsa, yoshlar orasida tez sur'atlar bilan keng tarqalmoqda. Ba'zilar to'qlikka sho'xlik qilsa, boshqalar o'zi bilmagan holda, aldovlar natijasida uning qurboniga aylanadi.

Narkomaniya so'zi yunoncha «narke» – karaxtlik, harakatsizlik, «maniya» – aqldan ozish ma'nosini anglatadi. Chunonchi, narkotik moddani qabul qilgan odam karaxt bo'lib, harakatsizlanib fikrlash, aqliy faoliyat qobiliyatlarini yo'qotadi.

Ko'pincha o'smirning giyohvandlik yo'lga kirishiga ota-onaning salbiy o'rnagi, qo'pol muomalasi va bolani tarbiyalashdan o'zini chetlatishi turtki bo'ladi. Ota-onalar, pedagoglar, shifokorlar uchun bu yo'lning boshida turgan o'smirni erta bosqichlarda aniqlash juda muhimdir.

Har yili o'n minglab odamlar giyohvandlik oqibatidan hayotdan erta ko'z yumadi yoki muomalaga layoqatsiz bo'lib qoladi.

Ularning aksariyati 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. Bu esa millat va butun sivilizatsiyaga tahdid soladi.

Giyohvandlik vositalari muntazam iste'mol qilinganda asab, ovqat hazm qilish, yurak-qon tomir tizimlarida o'zgarishlar ro'y beradi, immunitet pasayadi. Natijada oddiy shamollash ham o'limga olib kelishi mumkin.

Shuni bilishimiz kerakki, giyohvandlik dardiga chalingan insonning umr ko'rish davomiyligi – qaramlik shakllangan paytdan boshlab 5–10 yil. Gi-

yohvandlikning tarqalishi OITS muammosi bilan ham chambarchas bog'liq, OITS infeksiyasiga chalinganlarning 85 foizi giyohvandlardir.

O'zbekistonda 2024–2028-yillarda giyohvandlik va giyohvandlikka qarshi kurashish milliy strategiyasi tasdiqlandi.



U mamlakat chegaralarini giyohvandlik vositalari kirib kelishidan himoya qilishni yaxshilash, ularning internet orqali tarqalishiga qarshi kurashish va narkologik da-

volash sifatini oshirishni o'z ichiga oladi.

Ekspertlarning fikriga ko'ra, har bir giyohvand o'z doirasiga 15 nafargacha kishini jalb qiladi, ularning aksariyati voyaga yetmagan o'smirlardir. So'nggi paytlarda giyohvand moddalaridan o'lim holatlari 12 barobar ko'paydi.

O'zbekiston huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan transmilliy giyohvandlik guruhlarining g'ayriqonuniy faoliyatini aniqlash va ularga chek qo'yish, kontrabanda kanallarini to'sib qo'yish, giyohvandlik tarqalishining oldini olish bo'yicha maxsus kompleks operatsiyalar amalga oshirilmoqda. Muntazam ravishda «Qora ko'knori», «Afyun» operatsiyalari o'tkazilib, ularda tarkibida giyohvand moddalar bo'lgan o'simliklar yetishtirishning

ko'plab holatlari aniqlanmoqda.

Giyohvandlikka qarshi kurashishda mahallalar, ta'lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlarda ham muntazam targ'ibot-tushuntirish ishlari kuchaytirilishi kerak. Bu illatga faqat shu yo'l bilan to'siq qo'yish mumkin.

Bugungi O'zbekiston yoshlari — mamlakat tarixidagi eng ko'psonli avlod. Aholining yarmidan ko'pi 30 yoshgacha bo'lganlar. Yoshlarning dunyoqarashi endigina shakllanib borayotgan bir paytda, ularni aldov yo'llari bilan giyohvandlik qurboniga aylantirayotganlar oz emas. O'z hamyonini qappaytirish ilinjida og'uni voyaga yetmagan yoshlar orasida tarqatib, uni iste'mol qilishga targ'ib qilayotganiga jim qarab turib bo'lmaydi. Shu bois bu illatga qarshi kurashish hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi kerak. Zero, bunga butun jamiyat birdek mas'ul!

G'ayratulla SHUKUROV,
o'z muxbirimiz.

SUD ZALIDAN

AYOL TOVLAMACHILIK QURBONIGA AYLANDIMI?

Qonun jamiyatda tartib, adolat va tinchlikni ta'minlaydi. Ammo kimda-kim qonunni chetlab o'tsa, u baribir jinoyat domiga ilinadi. Chunki noqonuniy xatti-harakat bor joyda tinchlik, ezgulik bo'lmaydi. Buni yaqinda Shahrixon tumanida sodir bo'lgan voqea yaqqol isbotladi.

Saidbek Ahmadov (ism-shariflar o'zgartirildi)ning taqdiri bugun ko'pchilikka saboq bo'lmoqda. Bir qarashda, u ham oddiy inson: tirikchilik qiladi, oilasi bor, kundalik hayot tashvishlari bilan band. Ammo bir xato uni nafaqat erkinlikdan, balki jamiyat oldidagi obro'sidan ham mahrum etdi.

2025-yil 10-aprel kuni u sha'riy nikoh asosida birga yashab kelgan turmush o'rtog'i Sayyora Salimovaning boshqa bir fuqaro bilan ishqiy munosabatda bo'lganini eshitib, qattiq g'azab otiga mindi.

U turmush o'rtog'idan behayo foto va videotasvirlarni inter-

net orqali tarqatmaslik evaziga pul talab qildi. Bu nafaqat axloqsizlik, balki qonun nuqtayi nazaridan ham jinoyatdir. Insonning shaxsiy hayotiga aralashish, uning sha'niga, qadri-qimmatiga tajovuz qilish bu jamiyat axloqini buzuvchi og'ir illat hisoblanadi.

Saidbek Sayyoradan 5 ming AQSH dollari talab qilgan, 11-aprel kuni esa ushbu pulning bir qismini 900 dollar va 1 million 300 ming so'mni olgan paytda huluqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari tomonidan ashyoviy dalillar bilan qo'lga olingan.

Jinoyat ishlari bo'yicha Shahrixon tuman

sudida ushbu holat atroflicha ko'rib chiqildi va Saidbek Ahmadov Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan aybli deb topildi. Unga nisbatan 4 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi. Endi u ish joyiga borish va uyiga qaytish vaqtidagina harakatlanishi mumkin. Qolgan vaqtlarda uydan chiqishi man etilgan.

Mamlakatimizda har bir fuqaroga o'z huquq va manfaatlarini qonun doirasida himoya qilish imkoniyati berilgan. Agar u haqiqatan ham tahqirlangan bo'lsa, ichki ishlar organlariga yoki sudga murojaat qilishi mumkin edi. Ammo Saidbek bu yo'lni tanlamadi.

Bu yerda yana bir muhim jihat bor: axborot texnologiyalari asrida har bir harakatingizning izi qoladi. Internet orqali tahdid qilish, inson sha'nini kamsitish, shaxsiy ma'lumotlarni tarqatish jinoyat deb baholanadi. Ijtimoiy tarmoq orqali kimnidir sharmanda qilish bu «ozod fikr» emas, balki shaxsga qarshi jinoyat hisoblanadi.

Zarifjon RAHIMOV,
jinoyat ishlari
bo'yicha Shahrixon
tuman sudi sudyasi.



BIR JINOYAT IZIDAN

ISHONCH DARZ KETMASIN

Ishonch – kishilarni o'zaro bog'laydigan rishta. Usiz odamlar bilan muloqotga kirishish qiyin bo'ladi. Agar ishonchimizni kimdir suiste'mol qilsa-chi? Unda qalbimiz ozor chekadi, haq-huquqlarimiz poymol bo'ladi.

Angor tumani «Maddaniyat» mahallasida yashovchi Sobir Bakirov (ism-sharifi o'zgartirildi) ham odamlarning sa-

kredit qarzlarini o'zi to'lashga majbur bo'ladi.

Bu qilmishi uchun Sobir Bakirov sud qarori bilan 1 yil 2 oy



mimiyiligi, soddaligidan foydalanib, ularni chuv tushirish orqali moddiy boylik orttirishga harakat qildi.

Dastlab u tani-shi Leyla Samadovaning ishonchiga kirib, uning nomiga bankdan 50 million so'm kredit rasmiylashtirib oladi. Leylani «Kredit qarzlari o'zim to'layman, siz xavotir olmang!» deb ishontiradi-yu, pullarni qo'lga kiritgach, fikri o'zgaradi. Kredit qarzini so'ndirish vaqti kelganda g'oyib bo'ladi. Shu tariqa, Leyla Samadova bironvga olib bergan

axloq tuzatish ishlariga jalb qilinadi. Lekin bundan ham xulosa chiqarmagach, u odamlarga firib berib, pul topishning yangi yo'lini o'ylab topadi. Ya'ni, o'zi yashaydigan Angor tumani markazidan ijaraga joy olib, aviakassa faoliyatini yo'lga qo'yadi. Biroq xorijga ishlashga yoki yumush bilan ketmoqchi bo'lgan fuqarolarga ushbu aviakassa orqali soxta biletlarni pullashning yo'lini topadi. Avvaliga Mavlon Jangirovga «Termiz – Moskva» yo'nali-

shi bo'yicha 2 million 318 ming so'mga bitta soxta aviachipta sotadi. Keyin «Termiz – Moskva», «Toshkent – Sankt-Peterburg», «Toshkent – London» yo'nalishlari bo'yicha Angor, Muzrabot, Boysun, Sherobod kabi tumanlardan kelgan jami 30 nafar fuqaroga qalbaki chiptalarni pul-laydi. Bu firibgarligi ortidan 123 million so'm mablag'ni o'zlashtirib, shaxsiy manfaatlariga sarflab yuborgach, aviakassa faoliyatini ham to'xtatib, juftakni rostlaydi.

Yaxshilik izsiz ketmagani kabi, yomonlik ham javobsiz qolmaydi. Har qanday g'arazli qilmishga jazo bor. Xuddi shuningdek, Sobir Bakirov ham qilgan firibgarligiga yarasha qonun oldida javob berishiga to'g'ri keldi. Uning ustidan yozilgan shikoyat arizalari asosida jinoiy ish qo'zg'atilib, o'rganib chiqildi va barcha qilmishlari tergov-surishtiruv davomida oshkor bo'ldi. Angor tumani IIB huzuridagi Tergov guruhi xodimlari uni qonun ixtiyoriga topshirishdi.

Xayrulla XO'SHBOQOV,
kapitan.
Feruz
RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.
Suxondaryo viloyati.

Bugungi kunda respublikamizda, jumladan, Andijon viloyatida diniy muhitni sog'lomlashtirish, yoshlarni turli yot ta'sirlardan asrash, jamiyatda sof e'tiqod va ma'rifat ruhini mustahkamlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, «hujra» deb atalmish noqonuniy diniy ta'lim manbalarini aniqlash, bunday faoliyatni amalga oshirayotgan shaxslarning jinoyatlariga huquqiy baho berish borasida ichki ishlar organlari tomonidan keng qamrovli choralar ko'rilmoqda. Ma'lumotlarda bayon etilishicha, joriy yilning 9 oyi davomida viloyatda 184 ta noqonuniy diniy ta'lim berish holati fosh etildi. Shulardan 94 tasi xonadon sharoitida tashkil etilgan bo'lib, ularda 592 nafar voyaga yetmagan noqonuniy ravishda diniy saboq olgan. 65 ta holatda 354 nafar shaxs «o'qishxonlik» deb atalgan yashirin to'garaklarda ta'lim olgan bo'lsa, 25 ta holatda ijtimoiy tarmoq orqali virtual ravishda diniy darslar o'tilgani aniqlandi.

Din nomidan foydalanib, «ta'lim» niqobi ortida pul topishni maqsad qilgan ayrim shaxslar islomning ezgu g'oyalarni buzib ko'rsatmoqda. Ular bolalar ongiga diniy bilim emas, balki qo'rquv, taqiq va tor doiradagi qarashlarni singdiradi. Bu esa yoshlarning ruhiyatida og'ir iz qoldiradi. Bunday muhitda o'sgan bola dunyoga shubha ko'zi bilan qaraydi, hayotdagi oddiy quvonchlardan ham o'zini chetga oladi.

Shu kabi holatlardan biri Andijon shahrida kuzatildi. Bir fuqaro xonadonda «hujra» tashkil etib, 20 nafar bolajonga noqonuniy ravishda saboq berib kelgan. U o'z qilmishini yashirish uchun ko'chasiga kuzatuv kameralari o'rnatgan, nazorat organlari va shubhali shaxslar ko'rinsa, bolalarni shiftdagi maxsus teshik orqali tomga chiqarib yuborgan. Bu holat

bolalar uchun jismoniy va ruhiy xavf tug'dirishi tabiiy. Yana bir fuqaro esa xonadonidagi muzlatkich ostiga yashirin yo'l ochib, tekshiruvlar vaqtida bolalarni yerto'lga yashirib kelgan.

– Biz aniqlayotgan «hujra»lar faqat qonunbuzarlik emas, balki inson ruhiyatiga, jamiyatning ma'naviy sog'lomligiga tahdididir, – deydi viloyat IIB Terrorizmga qarshi kurashish boshqarmasi katta mutaxassisi, mayor

«HUJRA»DAGI XATAR

Sherzodbek Mirzayev. – Bu kabi xonadonlarda bolalarning oilaviy muhitidagi mehr-oqibat o'rniga qo'rquv va qattiqqo'llik hukm suradi. Ko'p hollarda ularda yolg'on, qo'rquqlik, ishonchsizlik va hayotdan uzilish kayfiyati shakllanadi. Bu esa keyinchalik jamiyatdagi sog'lom munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mamlakatimizda fuqarolarning din erkinligi to'la kafolatlangan. Har

kim o'z xohishiga ko'ra dinni tanlab, qonun doirasida uni o'rganishi mumkin. Shuningdek, ta'lim olish istagida bo'lganlar uchun rasmiy diniy bilim yurtlari faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan, Andijon shahridagi Sayyid Muhyiddin maxdum nomli o'rta maxsus bilim yurtida talabalar bilan bir qatorda, xohlovchilar uchun 3 oylik kurslar tashkil etilgan bo'lib, u yerda bir vaqtning o'zida 150 nafar fuqaro Qur'oni Karimdan saboq olish imkoniyatiga ega.

Aytish joiz, qonun doirasidagi ta'lim va noqonuniy «hujra» o'rtasidagi farq osmon bilan yerdek. Birinchisi ma'rifat, ma'naviyat va mehrga asoslansa, ikkinchisi nafs, qo'rquv va moddiy manfaat illatiga qurilgan. Shuning uchun «hujradagi xatar»ni faqat huquqbuzarlik sifatida emas, balki ma'naviy buzilishning bosh sababi sifatida ham anglash lozim.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.


Здоровье

СПОСОБЫ ЗАЩИТЫ ОТ ПРОСТУДЫ

Как максимально обезопасить себя от вирусов ОРВИ, а также поддержать иммунитет в холодное время года. Рекомендации, которые могут помочь сохранить здоровье в сезон простуд и гриппа.

Одна из причин того, что человек чаще простужается осенью и зимой – это охлаждение носа. Советуем защищать его от переохлаждения и в буквальном смысле согреть – например, вдыхая пар. Если в носу снижается температура, это замедляет кровообращение, а, значит, замедляется и движение иммунных клеток, сражающихся с патогенами.

Кроме того, для защиты от простуды полезно промывать нос соленой водой. Такое промывание эффективно снижает количество микробов в носовых ходах, не дает вирусам размножиться и проникнуть внутрь организма.

Еще один совет от специалистов: стирать одежду в горячей воде. В разгар вирусных заболеваний лучше стирать в воде температурой не ниже 40 градусов – это помогает убить микробы,



витамина D являются печень трески, жирная рыба, яйца, кисломолочные продукты.

Также врачи рекомендуют есть меньше сладкого. Научные данные говорят о том, что избыток сладкого в рационе угнетает активность иммунных клеток-фагоцитов, и они начинают пропускать микробов вместо того, чтобы уничтожить. Тем, кто не может без сладостей, следует есть вместо печенья и конфет фрукты и сухофрукты.

Помимо этого, эффективным средством защиты от простуд и гриппа является 8-часовой сон. Люди, которые спят меньше 7 часов в сутки, в три раза больше подвержены простудным инфекциям, чем спящие по 8 часов.

которые попадают на одежду.

В сезон простуд и гриппа важно не допускать недостатка витамина D в организме. Его дефицит сопряжен с уменьшением выработки веществ, стимулирующих иммунную систему. Риск простудиться в таких обстоятельствах повышается как минимум на треть. Лучшими источниками

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(8 – 14 декабрь)



Қўй (21.03 – 20.04). Бу ҳафта да куч-шижонатга тўлиб, кўпгина режаларни рўёбга чиқариш имкониятига эга бўласиз. Шу кунларда амалга оширилган таваккалчилик кўпинча омад келтиради. Фақат шошмасдан ушбу ижобий ҳолатингиздан аниқ мақсадларда фойдаланишга ҳаракат қилинг.



Бузоқ (21.04 – 20.05). Бу даврдаги ҳар қандай янги танишувлар фойда ва омад олиб келади. Атрофдагилар билан кўпроқ муносабатда бўлишга ҳаракат қилинг. Уй учун бирон нарса харид қилиш ниятингизни бўлса, ҳафтанинг сўнгги кунларида амалга оширганингиз маъқул.



Эгизаклар (21.05 – 21.06). Сизни ҳодисаларга бой ҳафта кутмоқда. Душанба куни фойдали нарсага пул тикиш ҳақида ўйлаб кўринг, эҳтимол, бу билан молиявий ҳолатингизни яхшилаб оласиз. Ҳафта бошида иш жойингизда текширув ташкил этилиши мумкин.



Қисқичбақа (22.06 – 22.07). Дастлабки кунлар касб-ҳунар соҳасида муваффақиятлар ва молиявий даромадлар кутилмоқда. Фойдали одамлар билан танишиш имкониятини тақдим этиши мумкин бўлган хизмат сафарлари, шахсий иш билан узоқ ўлкаларга саёҳатлар омадли кечади.



Арслон (23.07 – 23.08). Бу даврда фақат ўзингиз учун мақбул ва ёқимли бўлган ишлар билан шуғулланиб, қолганини кейинги ҳафта режасига киритинг. Фаолият юритаётган жойингизда иш юкласини ортиши мумкин. Ижод қилиш, яратиш ва барпо қилишга қаратилган саъй-ҳаракатлар бу ҳафтада ижобий натижа беради.



Паризод (24.08 – 23.09). Ички сезиш ҳисси оғоҳлантираётган белгиларга безътибор бўлманг. Қатъият ва мақсад сари интилиш туфайли ишда, молиявий масалаларда ва шахсий муносабатларда муваффақиятга эришасиз. Бироқ меъёрдан ортиқ куч ва ғайрат соғлиққа жиддий зарар етказиши мумкин.



Тарози (24.09 – 23.10). Ташаббускорлик ва ишдаги фаоллик ортидан барча молиявий масалаларни омадли ҳал қилишингиз мумкин. Бу ҳафта сиздан алоҳида кузатувчанлик ва диққат-эътибор талаб этилади. Режага киритилмаган ортиқча харажатлар кузатилиши мумкин.



Чаён (24.10 – 22.11). Ҳафта бошида иш жойингизда текширув ташкил этилиши мумкин. Барча саъй-ҳаракатларингиз муносиб баҳоланади. Ҳафтанинг иккинчи ярмида таранг асабларни бўшаштиринг, ижодий режаларни амалга ошириш ҳақида ўйланг.



Ўқотар (23.11 – 21.12). Сизни бу ҳафта қизиқарли учрашувлар, мароқли сафарлар, кўпгина фойдали мулоқотлар кутмоқда. Омадни чўчитиб юбормаслик учун ҳеч нарса ни олдиндан режалаштирманг. Турли муаммо ва масалаларни уларнинг юзага келишига қараб ҳал қилиб, ҳаёт «оқимида сузиш»га ҳаракат қилинг.



Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01). Ушбу давр бироз организмга дам бериш учун қулай палладир. Ҳар бир ишда «биринчи бўлиш» ролини вақтинча сеvimли ва яқин инсонларга топширганингиз маъқул. Ўз насиҳат ва маслаҳатларингиз билан уларга халақит қилмай бошқаларнинг қобилиятини қадрловчи инсонга айланинг.



Қовға (21.01 – 19.02). Ҳафта боши оғир ва муаммоли кечади. Бу кунларда бепарволик туфайли хатога йўл қўйишингиз, атрофдагилар билан зиддиятли вазиятлар юзага келиши, иш самарадорлиги пасайиши мумкин. Ҳар қандай жанжал ва тортишувларда низога бормасликка ҳаракат қилинг.



Балиқ (20.02 – 20.03). Ҳафтанинг илк кунлари молиявий аҳволингиз яхшиланиб, ҳатто сармоjali таклифлар олишингиз мумкин. Бу паллада сизни янги таассуротлар ва ёрқин ҳис-туйғулар кутмоқда. Ҳам шахсий масалалар, ҳам иш юзасидан кўп жойларда бўлишингиз кутилмоқда.

СКАНВОРД

Криволапий хищник	Природная смола	«Билборд» на стадионе	10 линий	Рис, рыба, нори	Упражнения акробата	Помощник роженицы	«Отряд» борзых
			Серб в прошлом				Дынное поле
Верблюжий кумыс	Защитник идеи, учения	Граница фарватера		Природное свойство	Немецкое имя		
		«Хинкали» из Италии	Кухонная принадлежность		Впадает в Каспийское море		
Судно, заменяющее мост			Всем известный извествияк	Туркменистан	Знаменитый алмаз		
		Сокровенность	Торжественная музыка		Способ военных действий	Ар-бенина	
Виртуоз в своем деле	Министр финансов Николая II			Соединяет две точки дуги			
			Михайлов		Увлеченный человек	Душевный пыл, возбуждение	
Игра с «рыбами»	«Наш... Чемберлену»			Саквояж, картонка и собачонка			
			Марианская...				
Каменная куропатка	«Возмужавшее» насекомое			Город в Сенегале			



«VATAN – MUQADDAS, UNI HIMOYA QILISH SHARAFLI BURCHDIR!» IJODIY TANLOVIGA

YURTIM ASKARLARI

Vatan himoyasi yigit uchun shon,
Askarlar bor ekan, kulib otar tong,
Yurt uchun xizmatda, yurt uchun qalqon,
Yurtim askarlari, sizga tasanno!

Keksalar duoda sizni olqishlar,
Doimo sergaksiz, ham yoz-u qishlar,
Sarhadni buzolmas hattoki qushlar,
Yurtim askarlari, sizga tasanno!

Harbiy texnikada erursiz mohir,
Yurtim bayrog'ini ko'tarib mag'rur,
Vatanim ishonar sizlarga axir,
Yurtim askarlari, sizga tasanno!

Samodan boqasiz, suvdasiz hatto,
Burchingiz sharaf-la etasiz ado,
Vatan tayanchisiz, qilmaysiz xato,
Yurtim askarlari, sizga tasanno!



Ro'zimurod BOLQIYEV,
Jizzax viloyati Mirzacho'l tumanidagi 10-umumta'lim
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

ISHTIROK ETING VA G'OLIB BO'LING

O'zbekiston Respublikasi IIV «Postda-Ha nocty» gazetasi, «Qalqon-Щит» jurnali Birlashgan tahririyati 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan «Vatan – muqaddas, uni himoya qilish sharafli burchdir!» ijodiy tanlovini e'lon qiladi.

Tanlovda ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarining faoliyatini ifoda etuvchi suratlar, maqolalar, she'r va hikoyalar bilan ishtirok etishingiz mumkin.

Qatnashuvchilarning yoshi, kasbi, ijtimoiy mavqeyi chegaralanmagan. Tanlovga materiallar 2026-yilning 10-yanvariga qadar qabul qilinadi.

Murojaat uchun telefon: (90) 962-74-17.

TAHLIL

Jinoyat soni kamaydi, biroq...

Joriy yilning o'tgan 10 oyida Namangan viloyatida xotin-qizlar tomonidan 217 ta jinoyat sodir etilgan. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 79 taga kam, ya'ni jinoyatchilik 26,7 foizga pasaygan. Bir qarashda bu ijobiy ko'rsatkich. Raqam pasaygan, biroq...

Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga mamlakatimizda katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki azaldan ayol go'zallik, nafosat va sadoqat ramzi. Mehr-oqibat, fidoyilik, halollik fazilatlarini shuurimizga singdiradigan ham ayol. Ming afsuski, bunday sharafli nomga barcha ayollar ham birday munosib emas...

Psixologlarning ta'kidlashicha, bugungi kunda xotin-qizlar o'rtasida salbiy holatlarning ko'payishiga asosiy sabab oiladagi nosog'lom muhit, ta'lim beruvchi maskanlarda jismoniy va ruhiy tarbiyaning sustligidir.

– Sodir etilgan 175 ta jinoyatning 111 tasi o'g'rilik jinoyati, – deydi Namangan viloyati IIB JXX HPB boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Nigoraxon Qayimova. – Keyingi o'rinlarda firibgarlik (22 ta) va bezorilik (15 ta) holatlari turadi. Shuningdek, 9 ta yengil tan jarohati yetkazish, 4 ta talonchilik, 2 ta og'ir tan jarohati yetkazish holati ham qayd etilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, viloyatda jinoyat sodir etgan 230 nafar ayolning 74 nafari uy bekasi, 49 nafari



tadbirkor yoki o'zini o'zi band qilgan, 26 nafari o'quvchi va talaba-qizlar, qolganlari esa sog'liqni saqlash, ta'lim sohalarida ishlagan. Yosh bo'yicha: jinoyatchilarning 25 nafari voyaga yetmagan, 85 nafari 18–30 yoshda, 120 nafari esa 30 yoshdan katta.

Albatta, aholi o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olishda eng maqbul va sinalgan usul – ularning kitobxonlik darajasini oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madani-

yatini yuksaltirish, jismoniy tarbiya, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishdir.

Xalqimizda «Kasalni davolashdan ko'ra, oldini olish oson» degan naql bor. Bu gap insonning ma'naviy qusurlari, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish haqida ham aytilgan, desak, yanglish bo'lmaydi.

Tanamizni chiniqtirsak, kasalliklarga qarshi, ma'naviyatimizni chiniqtirsak, insoniylikka yot bo'lgan salbiy illatlarga qarshi tura olamiz. Zero, bunday illatlar ilmsizlikdan, kasb-hu-

nar egallashga bo'lgan harakatning, kelajakka bo'lgan ishonchning yo'qligidan kelib chiqadi. Shu bois qo'yayotgan har bir qadamimiz ertangi kunda yo muvaffaqiyat, shon-shuhrat, ezgulik yoki qabohat, zalolat keltirishi mumkinligini unutmasligimiz kerak.

Atrofimizdagilarga, ayniqsa, yoshlarga, bo'sh vaqtni ilm o'rganishga, kasb-hunar egallashga, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga sarflashni o'rgataylik. Befoyda gap-gashtaklardan ko'ra, har oyda bir marta psixolog, huquqshunos, olima va ko'pni ko'rgan, tajribali kayvonilar ishtirokida ayollar uchun seminarlar tashkil etish bu borada og'riqlarimizga malham bo'lishi shubhasiz.

Ayollarning nozik qo'llariga kishan emas, gul yarashadi, mehr va muhabbat ma'vosi bo'lgan qalbida faqat ezgulik yashashi kerak. Onalar tilidan afsus-nadomat-u nolalar emas, mehr izhori bo'lgan allalar taralsin.

Buning uchun esa huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olish faqat huquq-tartibot idoralari yoki tegishli tashkilotlarninggina emas, hammamizning vazifamizga aylanishi lozim.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.




YURAKKA YAQIN TARONA



Baxt haqida so'z ketganida, beixtiyor ko'pchilikning xayoliga 1995-yili suratga olingan «Yulduzning ber, osmon» filmidagi «Baxt o'zi nimadir?» saundtregi keladi. Shoir Ibrohim Jiyanov qalamiga mansub mazkur she'rga tanikli bastakor Anvar Ergashev ajoyib kuy bastalagan. O'zbekiston xalq artisti Nasiba Abdullayevaning betakror ijrosi, yurakdan kelgan ovozi qo'shiqqa alohida ruh bag'ishlaydi. U mahorati tufayli faqat so'zni emas, hissiyotni ham yetkazadi – shunga ko'ra bu qo'shiq o'zbek estradasining sevimli asarlaridan biri

bo'lib qolgan. Yillar o'tsa ham, bu qo'shiq o'z ahamiyatini yo'qotmayapti. Har bir davrda, har bir tinglovchi undan o'z hayotiga mos ma'no topadi.

Hozir ham ijtimoiy tarmoqlarda, konsertlarda, hatto to'y va bayramlarda bu qo'shiq yangraydi. Har safar uni tinglaganda, odam



nelarnidir qo'msaydi, unda ajib xotiralar uyg'onadi – go'yo o'z o'tmishini eslab qadrlil va qadrdon tuyg'ularini yana bir marta his etayotgandek bo'ladi...

Adolat FAYZIYeva,
o'z muxbirimiz.

«BAXT O'ZI NIMADIR?»

Baxt o'zi nimadir, men bilolmadim,
Sevgi nima ekan, tushunolmadim.
Ammo armonlarning azoblaridan
Qancha tirishsam ham, chetda qolmadim.

Bu dunyo sig'magan ikki ko'zimga
To'lib qoldi ikki tomchi achchiq yosh.
Peshona deganga yozilgan ekan
Rohat emas, faqat chidam va bardosh.

Lekin men aylanmay dalli gadoga,
Boshim baland qilib qo'shiq aytaman,
Gar o'lsam, yolvorib egam Xudoga,
Bu dunyoga qaytaman.

Shunda mening boshim yetib osmonga,
Dilni anduhlardan ozod qilurman.
Aldanib qolmasdan yomonlarga,
Qanday yashashni o'zim bilurman.



Qo'shiq
klipini ushbu
QR-kod orqali
ko'rishingiz
mumkin.



IKKINCHI ISTE'DOD

SAN'ATGA OSHUFTA QALB

**Jizzax viloyati IIB JXX JTSB
PPX batalyoni xodimlari safdor
Sarvar Botirovni nafaqat zim-
masidagi vazifalarni sidqidildan
bajaradigan hamkasb, balki san'-
atga oshuфта inson sifatida ham
hurmat qiladi.**

Sarvar tor chalib, qo'shiq kuylashni o'qituvchilikka umrini bag'ishlagan, bir muddat Sharof Rashidov tumani madaniyat uyiga rahbarlik qilgan otasidan o'rgangan. Abdurahmon aka tor, rubob, dutor, tanbur, gitara va pianinoda musiqa ijro etib, mumtoz va milliy ashulalarni qo'yillatib aytar, bo'sh vaqtida o'g'lini san'at sirlaridan voqif qilardi.

Lavhamiz qahramoni ilk marotaba maktab sahnasida rubob chalib, qo'shiq ijro qilganini hanuz eslab, hamkasblariga gapirib beradi. O'shanda aksar ustozlari uni san'at yo'lidan ketishga undagandi. Lekin uning orzusi egniga forma kiyib ichki ishlar organi xodimi bo'lish edi. Ayni shu maqsadda 2012-yilda qo'riqlash xiz-

matida faoliyatini boshlagan Sarvar keyin uzoq yillar yo'l-patruil xizmati inspektori lavozimida ishladi.

Lekin san'atdan aslo uzoqlashmagan Sarvar hozir tizimda o'tkaziladigan bayramlar, turli madaniy tadbirlarda faol qatnashib keladi. 2021- va 2023-yillarda IIV tomonidan uyushtirilgan «San'atga oshno qalblar» ko'rik-tanlovida ham faol qatnashib, sovrindor bo'lgan.

O'zbek san'atining yetuk san'atkorlari Komiljon Otaniyozov, Kamoliddin Rahimov, Ortiq Otajonov, Sherali Jo'rayev, Rustam G'oyipovning qo'shiqlarini sevib kuylaydigan lavhamiz qahramoni bugun o'z qo'shiqlarini ham yaratmoqda. Jumladan, bastakor Dilshod Erkinov bilan birga tayyorlangan «Vatan» qo'shig'i san'at ixlosmandlari tomonidan iliq qabul qilindi. Ayni vaqtda esa ular soha xodimlari faoliyatiga bag'ishlangan «Fidoyilar» qo'shig'i ustida ishlashyapti.

O'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

polkovnik
Bernora SADIKOVA

**Bosh muharrir
o'rinbosarlari**

podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir

Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar

Sarvar SOBIROV
Yuliya KIM

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

**Obuna masalalari
bo'yicha:**

71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



9 772010 535001

Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 3393.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
44995 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.

Korxonamanzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.